

FA8.5  
6-57



G'OFUROV SH.X.

**ADAPTIV SPORT  
O'YINLARI O'RGATISH  
METODIKASI  
(FUTBOL)**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

---

O'ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA  
SPORT UNIVERSITETI

G'ofurov Sh.X.


## ADAPTIV SPORT O'YINLARI O'RGATISH METODIKASI (FUTBOL)

*O'quv qo'llanma*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus  
ta'lim vazirligining 2021-yil 18 avgustdagи 356-sonli  
buyrug'iga asosan 5610500-Sport faoliyati (Adaptiv  
jismoniy tarbiya va sport) bakalavriat ta'lim yo'nali shida  
tahsil olayotgan talabalar uchun o'quv qo'llanma  
sifatida tavsiya etilgan*

*Ro'yxatga olish raqami 356/7-139*

TOSHKENT  
«O'ZKITOB SAVDO NASHRIYOT  
MATBAA IJODIY UYI»  
2021



UO'K 796.332(075)

KBK 74.267.5

G<sup>+</sup> 69

G'ofurov Sh.X.

**Adaptiv sport o'yinlarini o'rganish metodikasi (Futbol)**  
[Matn]: o'quv qo'llanma / Sh. G'ofurov. – Toshkent: "O'ZKITOB  
SAVDO NASHRIYOT MATBAA IJODIY UYI", 2021. - 120 b.

**Taqrizchilar:**

**Uraimov S** – Farg'ona davlat universiteti jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrasи p.f.b.f.d. (PhD)

**Yusupov N.M** – O'zDJTSU, "Futbol nazariyasi va uslubiyati" kafedra o'qituvchisi, p.f.n dotsent

Ushbu o'quv qo'llanma talabalarda futbol o'yini tarixi, musobaqa qoidalari, mashg'ulot o'tkazish, musobaqalarni tashkillashtirishga oid kasbiy-pedagogik malaka va ko'nikmalarni hosil qilish hamda shakllantirishga qaratilgan.

Adaptiv futbolning rivojlanish bosqichlari; futbolning ahamiyati haqida tasavvurga ega bo'lishi.

Adaptiv futbolni rivojlanish jarayonlari; Adaptiv futbol tarixi; Adaptiv futbol o'yining tizimini; o'yinda hakamlarning vazifalari; dastlabki harakatlarga o'rgatish vositasi, uslub va tamoyillarini biliishi kerakligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Ushbu o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 18 avgustdagи 356-sonli buyrug'iiga asosan nashrga tavsiya etilgan.

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi sharofati bilan barcha sohalarda har tomonlama yuksalish yuz berayotganini jismoniy-siyosiy va ma'naviy o'zgarishlar umuminsoniy qadriyatlar tizimida yangilanish, insonning barcha shaxsiy ehtiyojlari, talablari va manfaatlari birinchi o'ringa ko'tarilayotganini, ayniqsa o'sib kelayotgan yosh avlodlarning ma'naviy- axloqiy va jismoniy imkoniyatlari yanada oshayotgani bugungi kunda sir emas.

Shu munosabat bilan yangi insonni tarbiyalashning murakkab va ko'p qirrali muammosining muhim yo'nalishi har bir kishida o'z sog'lig'i to'g'risida o'zi qayg'urish madaniyatni singdirishdir. Uni tarkib topish uchun oila, maktabgacha muassasalar, mактаб, o'rta maxsus kasb hunar ta'lim tizimi, mahalla, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport tizimlarining xodimlari butun kuch quvvatini, g'ayratini ishga solib, bolaning ongiga yoshlikdan jismoniy tarbiyaga bo'lgan muhabbatni singdirib qo'yishlari darkor.

Nogiron tug'ilgan yoki taqdир taqozasi bilan nogiron bolib qolgan bolani yoki qobiliyatini yo'qotgan shaxsni salomatligi to'g'risida ota-onasidan, qarindoshlaridan oila a'zolaridan ham ko'proq qayg'uradigan odam bo'lmaydi. Bugungi kunda ijtimoiy himoya qilish masalasi "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrdagi farmoni asosida 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasi rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarga muvofiq amalga oshirilmoqda.

Oxirgi yillarda Respublikamizda eng asosiy, muhim vazifalaridan biri ommaviy sportni rivojlantirish masalasi turadi. Mustaqil O'zbekistonning ma'naviy sog'lom avlodlarni, bo'lajak vatanparvarlarni tarbiyalash vazifasi pirovard o'qituvchilar, mutaxassislar zimmasiga tushadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sport sohasidagi ishlar, o'sib kelayotgan yosh avlodni jismoniy va ma'naviy salomatligini shakllantirishning, sog'lom turmush tarziga intilish va mehr muhabbatini singdirishining g'oyat muhim sharti ommaviy sportni rivoj-

lantirishdir.” Kadrlar tayyorlash milliy dasturi<sup>ni</sup> hayotga tadbiq etishning ustuvor yo‘nalishidan biri OO‘YU va akademik litsey, kasb-hunar kollejlarida faoliyat ko‘rsatayotgan pedagogik xodimlar salohiyatini zamon talablari darajasiga ko‘tarishdan iborat.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchilari, sport mutaxassislarning, ustoz-murabbiylarning chuqur bilim, yuksak malaka, boy tajriba va mahoratga ega bo‘lishi har tamonlama yetuk, ma’naviy barkamol kadrlar tayyorlashning garovidir. Zero ustozlar har jihatdan shogird-larga namuna bo‘la olsagina kelajakka ishonchli zamin tayyorlanadi. Bunga erishish uchun o‘qituvchilar tinimsiz izlanishlari, o‘z bilim va malakalarini oshirib borishning barcha imkoniyat va vositalaridan samarali foydalanishlari zarur. Rivojlangan mamlakatlar o‘quv muassasalaridagi zamonaviy ta’lim texnologiyalari, ilg‘or tajribalari bilan tanishishlari, uni o‘quv yurtlarida qo‘llay bilishlari lozim.

Jismoniy imkoniyati cheklangan bolalar orasida kuchli zakovat egalari, ma’naviy boy, ilmiy salohiyatini oshirishga hayotda o‘z o‘rnini topishga harakat qilayotgan yoshlar ko‘plab topiladi. Qo‘l-oyoqsiz ko‘zi yoki organizmining qaysidir a’zosi ishlamasada, kuchli asar yoki she’r yozadigan, kompyuter, televizor sozlash yoki me’yoriga yetkazib kuy yaratadigan yoshlарimizni ko‘plab uchratamiz.

Nogiron sportchilarimiz Osiyo hamda olimpiya va paralimpiya o‘yinlarida yaxshi natijalarga erishib, O‘zbekiston bayrog‘ini yuqori ko‘tarishmoqda. Nogironlar o‘rtasida jismoniy tarbiya va sportni muntaзам rivojlantirish hamisha prezident va davlatimiz diqqat markazida turibdi. Futbol keng xalq ommasini jismoniy rivojlantirishning, uning salomatligini mustahkamlashning eng hammabop, binobarin, eng ommaviy vositadir. Bu kattalarga ham, o‘smirlarga ham, bolalarga ham birdek ma’qul bo‘lgan chinakam xalqchil o‘yin.

Futbol – chinakam atletik o‘yin. U tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik, kuchlilik va sakrovchanlikni rivojlantirishga yordam beradi. Futbolchi o‘yin paytida haddan tashqari ko‘p ish bajaradi. Bu esa odamning funksional imkoniyatlari darajasini oshirishga ma’naviy-irodaviy xislatlarini tarbiyalashga yordam beradi.

Futbol o‘yining negizida o‘yinchilarning umumiyl maqsadi – g‘alabaga intilish birlashtirib turgan kollektivlardan ikkitasining ko‘rishi yotadi. G‘alabani qo‘lga kiritishga intilish futbolchilarni

kollektiv bo'lib harakat qilishga bir-biriga o'zaro yordam berishga o'rnatadi. Do'stlik va o'rtoqlik tuyg'ularini tarbiyalaydi.

Boshqa sport turlaridagi mashg'ulotlarda ko'pincha futboldan qo'shimcha sport turi sifatida foydalilaniladi. Futbolda futbolchilar yo'nalishini o'zgartirib yugurish, sakrashning turli xillari, struktura jihatdan turlichha gavda harakatlari, to'pni tepish, to'xtatib olish va olib yurish, maksimal tezlikda harakat qilish, irodaviy xislatlarining, taktik tafakkurning kamol topishi kabilarni futbolni har qanday ixtisosdagi sportchiga kerak bo'lgan ko'pgina muhim hislatlarni o'stiradigan sport o'yini, deb hisoblash imkonini beradi. Nogiron bolalarning biror mashg'ulot bilan uzoq vaqt va muntazam shug'ullanishi natijasida mushaklarda yuzaga keladigan o'zgarishlar morfologik va biokimiyoviy xususiyatlar bilan belgilanadi. Organizmdagi moddarlar almashinuvi jarayoni bajarilayotgan ish darajasiga moslashadi. Mustaqil O'zbekiston Respublikasining strategik vazifalaridan biri-kelajakdag'i barcha ezgu ishlarni amalga oshirishga qodir bo'lgan jismoniy sog'lom va ma'naviy barkamol shahsni voyaga yetka-zishdan iborat. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun tarixni chuqr o'rganishimiz, sport turlari qoidalarini bilishimiz, o'quv ishlarini rejalashtirishga hamda ularni samarali olib borishga yangicha va ijodiy qarashimiz, ishga tashabbuskorlik bilan yondoshmog'imiz kerak.

## I-BOB. FUTBOL SPORT TURINI PAYDO BO‘LISHI, RIVOJLANISH TARIXI VA O‘YIN QOIDALARI.

### 1.1. Futbol sport turi paydo bo‘lishi, rivojlanish tarixi

*“Futbol-muhim bo‘lidan narsalar ichidagi eng muhim ish”*  
degan edi Italiyalik mashxur murabbiy Arrigo Sakki

Futbol keng xalq ommasini jismoniy rivojlantirishning, uning salomatligini mustahkamlashning eng hammabop, binobarin, eng ommaviy vositadir. Bu kattalarga ham, o’smirlarga ham, bolalarga ham birdek ma’qul bo‘lgan chinakam xalqchil o‘yin.

Futbolni paydo bo‘lishi haqida turli axborotlar, ma’lumotlar, turli taxminlar mavjud. Biroq ularda turli sanalar, turli davrlar keltirilgan. Tarixda futbol qachon paydo bo‘lganini hech kim aniq bilmaydi. Bu esa futbol ildizi qadimiy zamonalarga borib taqalishidan darak. Lekin ko‘pgina izlanishlar natijasida tarixshunoslarning fikricha futbolga o‘xhash to‘pli o‘yinlar necha-necha yuzlab yillar avval qadim Sharq mamlakatlarida (Misr, Xitoy), antik davlatlarda (Gretsiya, Rim) o‘ynalgan.



1-rasm




2-rasm

Shundan ko'pchilik futbolning kelib chiqishi antik davlatlarga borib taqaladi, deya e'tirof etishadi. Biroq aynan "futbol" deb atala boshlangan o'yin Angliyada paydo bo'lgan.

Qadimgi yunonlar to'p o'yinini shunchalik qadrlaganlarki, uni hatto gimnaziyalarni, maxsus maktablarning jismoniy mashqlar dasturiga kiritganlar. Qadimgi Misrda futbolga o'xshash o'yin era-mizdan 2000 yillar avval o'ynalgan bo'lsa, qadimgi Afina, Sparta jangchilari orasida "Episkiros", deb nomlanadigan ham oyoq bilan, ham qo'l bilan o'ynaladigan o'yin mashhur bo'lgan, bu o'yinni yumaloq matodan tayyorlangan to'pda o'ynashgan. Ammo bu o'yin juda qo'pol va shafqatsizligi bilan ajralib turardi.

Rim imperiyasida ozgina bo'lsa ham futbolga o'xshash to'p o'yini 180 yilda tilga olinadi. Palluksning yunoncha lug'atida o'ynovchilar ikki jamoa bo'lganligi yozilgan. Har qaysi jamoa to'pni raqib o'yin maydoni orqasiga o'tkazishga harakat qiladi.

Harakat jihatidan bu o'yin ko'proq hozirgi regbi o'yiniga o'xshab ketadi. Lekin u o'yin qo'l bilan o'ynash taqiqlangan edi.



**3-rasm**



**4-rasm**



S-rasm

1313 yili ingliz podshohi Eduard II shahar ichkarisida futbol o'yini o'ynashni taqiqlaydi. Podshohni ana shu farmoyishi ingliz futbol ittifoqining arxivida saqlanib qolgan. "Katta to'p quvgandagi ur-yiqitlar shaharlarda katta to'polon chiqarayotgani va yomon ta'sir ko'rsatayotgani uchun,- deyiladi farmoyishda,- itoat etmaganlar qamoqqa tashlanishini ta'kidlab bu o'yin endilikda shaharlarda o'ynalishi podshohlik nomidan taqiq etaman" bunday taqiqlashlarning sababi o'yin paytidagi tartibsizliklardagini emas, balki shaharlarning kamon otishdan va hatto hunarmandchilik ishidan chalg'itishida ham edi. Shu boisdan 1349 yili ingliz podshosi Eduard III ham Londonda futbol o'yini o'ynashni man qiluvchi farmoyish chiqaradi. Fransuz podshosi Karl V esa undan o'tib tushdi-1369 yili xalq o'yinlarini man etdi. Italiyada futbol birinchi bor 1400 yilda tilga olinadi. Angliya bilan Fransiyada oyoq to'pi o'yini xalqni ko'ngil ochar mashq'uloti bo'lsa, Italiyada ko'proq kibr doiralarining o'yini bo'lib qoladi.

XIX asrga, xususan Shu asr o'rtalariga kelib, sport metodi jismoniy tarbiyaning eng maqbul metodi deb topilib, sport xamda sport o'yinlari jismoniy rivojlanishining samarali vositasi bo'lib qolgandan keyin futbol tarixida yangi bosqich boshlandi.

Oyoqda to'p o'ynash birinchi galda ingliz kollejlari xamda universitetlarida yoyiladi. XIX asrning ikkinchi yarmidan futbol o'yini-

da ochiq-oydin ikki yo'nalish tarkib topadi. Ulardan birini London hamda Kembridj kollejlari qo'llab-quvvatlar edi. Bular 1863 yili futbol assotsiatsiyasini tuzadilar va yumaloq to'pni faqat oyoqda o'ynashni rasm qilishga qaror qiladilar. Regbi shahridagi universitet ikkinchi yo'nalish tarafdoi bo'lib, u yerda tuxumsimon, cho'zinchoq gardish shaklidagi to'pni ham qo'lida, ham oyoqda o'ynashga qaror berildi.

## 1.2. Futbol sport turidagi birinchi joriy qilingan o'zin qoidalari

Birinchi bor yagona o'zin qoidalari joriy qilishga urinib ko'rish Kembridj futbol klubiga tegishlidir. XIX asr o'rtalaridagi "to's-to'polon futbol"dan bosiqroq, jamoaviy, tashkillashtirilgan futbolga o'tildi va 1848 yilda Kembrijda rasmiylashtirilmagan futbol qoidalari ishlab chiqilib, o'yinlar tashkil etildi. 1848 yili bu qoidalarni nashr etishga qaror qilinadi. Afsuski, u bosmadan chiqmay yo'qolib ketadi. Shunga qaramay, bu qoidalalar ko'p ingliz kollejlarida "Kembridj qoidalari" tarzida ma'lum. Oradan 9 yil o'tib, ya'ni 1857 yil Sheffield shahrida dunyoda birinchi bo'lib futbol jamoasi tashkil topdi.



6-rasm

### 7-rasm

Biz faqat avetib kelgan dastlabki qoidalar esa 1863-yil oktyabr London'da Anglia institut uyuşumashılığı tasi. Tashrifida bu o'yinning 5 min odamdan iborat bo'lgan ilk futbol qoidasi sdiqlangan kechachal. Bu qoida qo'sha barcha qo'sha qoidalar uchun futbol o'yincha 3000 bo'lgan goldi. 1863-yilning 8 dekabrda qoidalar e'lon qilingan. Qo'sha qoidalar yozuvni "Football and rug'ulot-larida" nomiga boshladi. O'sha qoidalar qo'sha qoidalarida qanday e'lon qilingan bo'lsa, xuddi o'shanday keltirilgan:



### 8-rasm

Maydonning bo'yi 200 yard (183m) dan, eni 100 yard (91.5m) dan oshinaydi. Maydonning burchaklarida bayroqchalar o'rnatiladi. Ustiga to'sin yotqizilmagan darvoza 8 yard (7.32 m) oraliqda o'rnatilgan bo'lib, ikkita ustundan iborat.

Kim qay tomondan o'ynashi qur'a tashlab hal qilingan. Qur'ada yutqazgan jamoada maydon markaziga qo'yilgan to'pni tepib, o'yinni boshlab beradi. Ikkinchchi jamaoa o'yinchilarini to'p tepilgunga qadar unga 10 yard (9.1m) dan yaqin kela olmaydilar.

Darvozaga to'p urilgandan keyin, jamoalar tomonlarini almashtiriganlar.

To'p qo'lda uloqtirilmay, qo'lda zarba berilmay yoki qo'lda ko'tarib kirilmay, ikkita ustun oralig'idan o'tsa, darvoza zabit etilgan hisoblanadi.

Agar to‘p yon chiziqdan tashqariga chiqib ketsa, unda hamma-dan avval tega olgan o‘yinchi to‘pni chiziqni kesib o‘tgan joydan, chiziqqa nisbatan to‘g‘ri burchak hosil qiladigan yo‘nalishda to‘pni qo‘lda maydonga tashlab beradi. To‘p yerga tekkan zahoti o‘yinga kirgan hisoblanadi.

O‘yinchi zarba berayotgan paytda uning jamoasining zarba beruv-chidan ko‘ra raqib darvozasiga yaqinroq turgan hamma o‘yinchilar o‘yindan tashqari holatda hisoblanadi va ular to‘pga tega olmaydilar yoki raqiblarga halaqit bera olmaydilar.

7. To‘p darvoza chizig‘idan tashqariga chiqib ketib, chiziqning naryog‘ida himoyalanayotgan jamoada o‘yinchisi birinchi bo‘lib unga tegsa, Shu jamoada darvoza chizig‘ining o‘yinchi to‘pga tekkan joy ro‘parasidagi nuqtasidan to‘p tepish huquqini oladi, bordiyu hujum qilayotgan jamoada o‘yinchisi to‘pni birinchi to‘pga tekkan joy ro‘parasidagi nuqtasidan erkin to‘p tepish huquqini oladi. Erkin to‘p tepish paytida himoyadagi jamoa to to‘p tepilgunga qadar darvoza chizig‘idan tashqarisida turadi.

Agar o‘yinchi boshqa o‘yinchi zARBASIDAN uchib kelayotgan to‘pni bevosita qo‘li bilan ilib olsa, Shu holat ro‘y bergan joyni belgilab olib, o‘sha joydan erkin tepishi mumkin.

O‘yinchilar to‘pni qo‘llariga olib yugura olmaydilar.

O‘yinchilarni chalish va urish man etildi, Shuningdek o‘yinchini qo‘l bilan ushlab to‘xtatib qolish yoki turtish man etiladi.

To‘pni qo‘l bilan uzatish man etiladi.

Maydon ichida to‘pga qo‘l tekkizish man etiladi.

Temir va guttaperchadan qilingan joylari turtib chiqqan poyavzallarda o‘ynash man etilgan

Ko‘rinib turibtiki, 1863 yildagi qoidalar hozirgi qoidalardan anchagina farq qiladi. Bu hozirga kungacha futbol qonun qoidalari yillar o‘tishi bilan o‘zgaganligini ko‘rsatadi. Bu orada Paraolimpiya sport turlarining rivojlanishi yuz yilga kechikkan bo‘lsada bugungi kunda Paraolimpiya sport turlari rivojlanishdan to‘xtayotgani yo‘q, shular qatori nogironlar futboli ham.

## Nazorat savollari

1. Birinchi futbol qoidalar qachon va qayerda vujudga keldi?

2. Birinchi futbol jamoasi haqida ma'lumot bering?
3. Dastlabki futbol o'yin qoidalari necha moddadan iborat bo'lgan?
4. Zamonaliviy futbol o'yini qayerda paydo bo'ldi?

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Wein H. Spielintelligenz im Fuball-kindema traineren. Auflage: Meyer& Meyer Verlag. 2012. 368 pages.
2. Futbol nazariyasi va uslubiyati. Darslik. R.I. Nurimovning umumiyl tahriri ostida «ITA-PRESS». Toshkent.2015. 364 bet
3. Nurimov R.I.,Abidov Sh.U.,Nurimov Z.R., Davletmuratov S.R. Sport va milliy o'yinlar (Futbol) Darslik. «ITA-PRESS». Toshkent.2015. 180 bet
4. Спортивные игры: техника, тактика, методика обучения. Учебное пособие для профессиональных колледжей / Под общей редакцией Л.Р.Айрапетъяна. - Т.: ILM ZIYO , 2012. 296 с.

### 1.3. To'pni bir oyoqning ichki qismi bilan uzatishni o'rgatish

Oyoq kaftining ichki tomoni bilan tepish asosan qisqa va o'rta masofaga to'p uzatishda, shuningdek mo'ljalga yaqin masofadan tepilayotganda qo'llaniladi.

Shunday zarba berish texnikasining ba'zi xususiyatlarini ko'rib chiqamiz. Yugurish boshlanadigan joy, to'p va mo'ljal (nishon) taxminan bir chiziqdagi ortga depsinish hisobiga bajariladi. Tepish harakati sonni oldinga bukish bilan bir vaqtida zarba beruvchi oyoqni tashqari tomon burishdan (supinatsiyadan) boshlanadi. Zarba berish paytida taranglangan oyoqning uchi tashqari tomon burilgan, uning kafti esa to'p uchadigan yo'nalishga nisbatan aniq to'g'ri burchak hosil qilgan bo'lishi kerak. Oyoq uchi sal ko'tarilgan bo'ladi. Zarba berish oyoq kafti ichki sathining o'rtasi bilan ijro etiladi. Oyoqning zarba berish vaqtidagi holati surib borish vaqtida

ham saqlanib qoladi.

Oyoq kaftining ichki tomoni bilan tepish asosan qisqa va o'rtalmasofaga to'p uzatishda, Shuningdek, mo'ljalga yaqin masofadan tepilayotganda qo'llaniladi.



9-rasm

### Oyoq kaftining ichki tomoni bilan zarba berish

Oyoq kaftining ichki tomoni bilan tepilganda to'pga oyoqning kattaroq sathi tekkani uchun bunday tepish anchagina aniq bo'ladi. Biroq zarba beruvchi oyoqning orqaga tortilishi maksimal darajaga yetmagani sababli, bu usulda berilgan zarbaning kuchi boshqa usullardagiga nisbatan kamroq bo'ladi. Bu esa tos son suyagi boshini bo'g'in chuqurchasiga siqib, sonning zarba berish harakati uchun ziarur bo'lgan supinatsiyasini yo'q qilib qo'yishi bilan bog'liq.

Oyoq yuzining ichki qismi bilan tepish «o'rtacha» va «uzun» uzatishlarda, darvozaning uzunasiga «o'qdek» berishlar va hamma masofalardan nishonga tepish paytlarida qo'llaniladi.

Mazkur tepishni bajarishda to'p va nishonga nisbatan 450 hosil qilib yugurib kelinadi. Yo'l qo'yish mumkin bo'lgan xususiy chetlanishlar 300 dan 600 gacha bo'lishi mumkin. Bunda zarba beruvchi oyog'ining orqaga tortilishi maksimal darajaga yaqin bo'ladi. Tizza-si sal bukilgan tayanch oyoq kaftining tashqi qismi (oyoq tagining tashqi cheti) yerga qo'yiladi. Gavda tayanch oyoq tomonga sal engashadi. Tepish harakati sonni bukishdan boshlanib, boldirni keskin yozib yuborish bilan tugaydi. Oyoq uchi pastga cho'zilgan, oyoq tarang bo'ladi. Zarba paytida to'p bilan tizza bo'g'imini birlashtirib turuvchi shartli o'q frontal tekislikda og'ibroq turadi. Ana shu shart, shuningdek zARBANI to'pning o'rta qismiga berish natijasida to'p past

trayektoriya bo'ylab uchadi.

To'pni oyoqning ichki qismi bilan uzatishni takomillash-tirish. Xarakatda to'pni oyoqning ichki qismi bilan uzatishni o'rnatish. Xarakatda kelayotgan to'pni tepish. Dumalab kelayotgan to'pni tepishda ham zarba berish asosiy usullari va turlarining hammasi qo'llaniladi.

Bunday zarba berishdagi texnik harakatlar yerda harakatsiz yotgan to'pni tepishdagi harakatlardan farq qilmaydi. Asosiy vazifa o'z harakati tezligini to'p harakatining yo'nalishi va tezligi bilan muvofiqlashtirib olishdan iborat. To'pning quyidagi asosiy harakat yo'nalishlari bor: o'yinchidan nari ketish, o'yinchi ro'parasidan, yon (o'ng va chap) tomonidan, shuningdek shu yo'nalishlar oralig'idan kelish.

Tayanch oyoqni yerga qo'yish, ya'ni kichik fazani qanday bajarishning xususiyatlari ana shu yo'nalishlarga qarab belgilanadi. O'yinchidan nariga dumalab ketayotgan to'pni tepishda tayanch oyoq to'pdan nariroq o'tkazilib uning yon tomoniga qo'yiladi. Ro'paradan dumalab kelayotgan to'pni tepishda tayanch oyoq to'pga yetib bormaydi. Agar to'p yon (o'ng yoki chap) chap tomonidan dumalab kelayotgan bo'lsa, uni to'pga yaqinroq oyoq bilan tegpan ma'qul.

Barcha hollarda ham tayanch oyoqni to'pdan qancha oraliqda qo'yish to'pning harakat tezligiga bog'liq bo'lib, buni zarba berish harakati vaqtida to'p tayanch oyoq bilan tenglashib qoladigan qilib mo'ljallash kerak. Ana shu holat zarba berish uchun eng qulay hisoblanadi.

#### **1.4. To‘pni oyoqning o‘rta va tashqi qismi bilan uzatishni o‘rgatish**

**Oyoq yuzining o‘rta qismi bilan tepishni bajarish texnikasi** ko‘p jihatdan oyoq yuzining ichki qismi bilan tepishga o‘xshaydi, lekin uni bajarish detallari bir oz farq qiladi. Yugurib kelish chizig‘i, to‘p va nishon tahminan bir chiziqdagi bo‘ladi. Oyoqni orqaga tortish ham, zarba berish harakati ham qat’iyan sagittal tekislikda (oldinga-orqaga yo‘nalishida) bajariladi. Tayanch oyoqning tovoni to‘pning yon tomoniga qo‘yiladi – bunda oyoq bilan to‘p baravarlashadi. Tepish harakati davomida to‘p tayanch oyoq kafti tovonidan yumalab uchiga ko‘tariladi. To‘p bilan tizza bug‘imini birlashtirib turuvchi shartli o‘q zarba paytida qat’iyan vertikal bo‘ladi. Bu holat surib borish vaqtida saqlanib qoladi.

To‘p bilan oyoqning to‘qnashish sathi kattagina ekani zarba berishni anchagina aniq bajarish imkonini beradi. Yugurib kelish, oyoqni orqaga tortish va tepish bir tekislikda bajarilgani uchun harakat tizimi biomexanik jihatdan kerakligicha ishlataliladi hamda boshqa usullariga nisbatan kattaroq kuch bilan tepiladi. Biroq oyoq yuzining kafti yerga tegib ketib, oyoq og‘rishi va lat yeishi mumkin. Bu esa ehtiyyot tormozlanish oqibatida ko‘pincha harakat amplitudasi o‘zgarishiga, zarba kuchi kamayishiga, uning samaradorligi pasayib ketishiga olib kelishi mumkin.

**Oyoq yuzining tashqi qismi bilan tepish** burama zarba berish paytida eng ko‘p qo‘llaniladi. Oyoq yuzining o‘rta va tashqi qislari bilan tepishdagi harakatlarning strukturasi o‘xshash bo‘lib, farqi bunda tepish harakati vaqtida boldir bilan oyoq kafti ichkari tomon buriladi.

Oyoq yuzining o‘rta qismi bilan tepishni bajarish texnikasi ko‘p jihatdan oyoq yuzining ichki qismi bilan tepishga o‘xshaydi, lekin uni bajarish detallari bir oz farq qiladi.

Oyoq yuzining tashqi qismi bilan tepish burama zarba berish paytida eng ko‘p qo‘llaniladi. Oyoq yuzining o‘rta va tashqi qislari bilan tepishdagi harakatlarning strukturasi o‘xshash bo‘lib, farqi Shuki, bunda tepish harakati vaqtida boldir bilan oyoq kafti ichkari tomon buriladi.



**10-rasm**

Oyoq yuzining o'rta qismi bilan zarba berish



**11-rasm**

Oyoq yuzining tashqi qismi bilan zarba berish Oyoq uchida tepish kutilmaganda, tayyorgarlik ko'rmay turib, nishonga tepib qolish zarur bo'lib qolganda bajariladi. Bundan tashqari, bu tepish raqibdagi to'pni tashlanib yoki shpagat qilib tepib yuborishda ancha samaralidir.


#### **Havoda uchib kelayotgan to'pga zarba berish usullarini o'rgatish**

**Uchib kelayotgan to'pni tepish.** Uchib kelayotgan to'pni tepish-dagi ijro texnikasining xususiyatlari to'pning harakat trayektoriyasi ga qarab belgilanadi.

Tushib kelayotgan yoki pastdan uchib kelayotgan to'pni tepishda harakat strukturasi dumalab kelayotgan to'pni tepishda qanday bo'lsa, shundaydir. To'pning harakat yo'nalishi dumalab kelayotgan to'pni tepishdagi singari bunda ham tayanch oyoqni aniq mo'ljallassha yerga qo'yishga muayyan e'tibor berishni talab qiladi. Uchib kelayotgan to'pning tezligi odatda yumalab ketayotgan to'pdan ko'ra ortiqroq bo'lgani uchun, asosiy qiyinchilik uchib kelayotgan to'p

bilan oyoq uchrashadigan joyni mo'ljal qilish va topishdan iborat bo'ladi. To'pni burilib tepish, endigina sapchiganda tepish va boshdan oshirib turib tepish texnikasini tahlil qilganda, struktura jihatdan ba'zi xususiyatlari mavjudligini ko'rish mumkin.

Uchib kelayotgan to'pni tepishdagi ijro texnikasining xususiyatlari to'pning harakati traektoriyasiga qarab belgilanadi.



12-rasm

### Uchib kelayotgan to'pni tepish

Boshdan oshirib tepish kutilmaganda nishonga tepib qolish yoki boshdan oshirib orqaga to'p uzatib berish zarur bo'lib qolganda, uchib kelayotgan va sakrab chiqqan to'pga zarba berishda oyoq yuzining o'rta qismi bilan bajariladi.



13-rasm

### Boshdan oshirib zarba berish

Oyoqni tortish to'p tomonga yugurishda qo'yilgan so'nggi qadamdagagi depsinish hisobiga bajariladi. Tayanch oyoq tovonidan boshlab oldinga qo'yiladi. Gavdaning olg'a harakati tormozlanib, yuqoriga va orqaga bajariladi. Bu vaqtida tayanch oyoqda tovondan oyoq uchiga o'tiladi. Ozroqqina surib borilgandan keyin zarba beruvchi oyoq pastga tushib, gavda to'g'rilanadi. Oyoq bilan to'

qancha pastroqda uchrashsa, to'pning uchish trayektoriyasi shuncha baland bo'ladi. To'pni pastroq trayektoriya bo'y lab yo'naltirish uchun to'p tayanch joy tepasida, o'yinchining boshi bilan baravar bo'lganida tepish kerak. Yiqila turib boshidan oshirib tepish ham shunga yordam beradi. Gavda orqaga og'ganda o'yinchi ikki qo'li bilan yerga tushib, chalqancha yotib qoladi. Orqaga zarba berish harakati yiqilayotganda ko'rimliroq bajariladi.

Yanada kuchliroq tepish uchun «qaychi» qilib sakrab, boshdan oshirib tepishdan foydalilanadi. Bunda bir oyoqda depsinib, tushib kelayotgan to'p tomon sakraladi. Depsinuvchi oyoq yuqoriga harakatlanadi. Gavda orqaga og'a boshlaydi. Keyin depsinish oyog'i zarba beruvchi bo'lib, yuqoriga keskin ko'tariladi. Depsinuvchi oyoq esa past tushadi. Gavda gorizontal holatda ekanida to'p orqaga tepiladi. Oldin ikki qo'l, keyin ko'krak yerga tegadi.



**14-rasm**  
**Boshdan oshirib zarba berish**

Endigina sapchigan to'pni tepish odatda u yerdan salgina sapchigan zahoti bajariladi. Bunday tepishni oyoq yuzining o'rta va tashqi qismi bilan bajargan ma'qul. Bunda to'p yerga tushadigan joyni to'g'ri mo'ljallab, tayanch oyoqni mumkin qadar shu joyga yaqinroq qo'yish juda muhim. Zarba berish harakati to'p yerga tek-kungacha bo'lgan paytdan boshlanadi. Zarbaning o'zi esa bevosita to'p yerdan sapchib qaytgan zahoti beriladi. Zarba paytida boldir qat'yan vertikal, oyoq kafti maksimal bukilgan (oyoq uchi pastga qarab cho'zilgan) bo'ladi. Surib borish vaqtida ham oyoqning shu holatini saqlash kerak, bu past trayektoriyali qilib tepish imkonini beradi. Agar tayanch oyoq to'p chizig'idan anehagini oraliqda qo'yilgan bo'lib, «qiyin» to'p tepiladigan bo'lganda ana shu shartga rioya qilish ayniqsa muhim.



**15-rasm**

**Yarim uchish holatida zarba berish**

### **Nazorat savollari**

1. Oyoq kaftining ichki tomoni bilan tepish asosan qaysi masofaga to'p uzatiladi?
2. Oyoq yuzining ichki qismi bilan tepish qaysi jarayonlarda qo'llaniladi.
3. Boshdan oshirib zarba berish haqidagi tushuntirish bering?

### **Foydalanimgan adabiyotlar**

1. Wein H. Spielintelligenz im Fuball-kindema trainieren. Auflage: Meyer& Meyer Verlag. 2012. 368 pages.
2. Futbol nazariyasi va uslubiyati. Darslik. R.I. Nurimovning umumiy tahriri ostida «ITA-PRESS». Toshkent.2015. 364 bet
3. Nurimov R.I.,Abidov Sh.U.,Nurimov Z.R., Davletmuratov S.R. Sport va milliy o'yinlar (Futbol) Darslik. «ITA-PRESS». Toshkent. 2015. 180 bet
4. Спортивные игры: техника, тактика, методика обучения. Учебное пособие для профессиональных колледжей /Под общей редакцией Л.Р.Айрапетъяна. - Т.: ILM ZIYO , 2012.296с.

## **II-BOB. NOGIRONLAR O'RTASIDAGI ASOSIY FUTBOL MUSOBAQALARI**

### **2.1. O'zbek sportchilarining musobaqalardagi ishtiroki**

Hozirgi kunda nogironlar uchun futbol kasallikning tibbiy asoslarida shakllangan bir qancha turlarni o'z ichiga oladi. Amputant va kar, umuman ko'r va qisman ko'rish qobiliyatiga ega bo'lgan odamlar miya yarim saloji va aqliy rivojlanishining buzilishi. Ammo, mamlakatimizdagi 678 mingga yaqin nogironlardan atigi 10 foizdan kamrog'i umuman sport va xususan futbol o'ynash imkoniyatiga ega. Nogironligi bor amputantlar futboli bo'yicha milliy terma jamoamiz deyarli barcha toifalarda dunyoda yetakchi o'rinni egallaydi.

O'zbekiston bir necha yillardan buyon nogiron futbolni rivojlanish va ommalashtirish bo'yicha muntazam ishlar olib bormoqda va turli darajadagi musobaqalarni o'tkazib keladi. Biroq, ba'zi turlarining rivojlanish geografiyasi kengayishdan oqsimoqda. Sababi, ayrim mintaqalarda nogironligi bor odamlarning paralimpiya o'yinlari turiga kiradigan futbol turlarini yaxshi bilmasliklari yoki qoldalarini bilmasliklari bunga sabab bo'immoqda. Shu sababli zarur sport inshootlariga kirish imkoniyati kamayadi.

Bizningcha, nogironlar futboliga nafaqat ommaviy sport turlaridan biri, balki ijtimoiy muammo sifatida ham murojaat qilish kerak. Shu sababli O'zbekiston futboli qoshida "Ijtimoiy dasturlar markazi"ning tashkil etilishi foydali qadam sifatida ko'rilmoxda, uning ishi nogironlar futboli, O'zbekiston futbol faxriylari va ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda tahsil olayotgan nogiron bolalar muammolarini hal qilishga qaratilgan.

Amaliy ish tajribasidan ma'lumki, bu UFA (O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi) ning qo'llab-quvvatlashi, zamonaviy jamiyatda sog'lig'i cheklangan odamlarni moslashtirish, ularni yagona futbol oilasiga qo'shish uchun samarali ish olib borilmoqda. Shunday qilib, O'zbekiston nogironlar uyushmasi tomonidan UFA bilan hamkorlik muntazam ravishda olib borilgan. Ayniqsa mashhur futbol ustalarining faxriy mehmon bo'lib kelishlari, musobaqalarda bayramona

muhit yaratishga imkon beradi.

Bizningcha, nogironlar uchun havaskor futbol jamoalari Premer-liga, Super liga va PFL klublarida tashkil etilishi mumkin va ularning har biri qaysi futbol yo'nalishini qo'llab-quvvatlashga tayyorligini o'zi hal qiladi.

Paxtakor, Nasaf, Lakamativ kabi brendlarga tegishli bo'lish nogiron sport turlarining ahvolini sezilarli darajada oshiradi. Bundan tashqari, masalan, amputant futbolchilar klub tarkibida turli xil texnik lavozimlarda ishlashga qodir - va bu holda klublar ma'lum soliq imtiyozlaridan foydalanishlari mumkin. Nogironlar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar va o'quv markazlari - nogironlar futboli rivojlanishiga yordam beradi.

Yuqorida aytilganlarga muvofiq nogironlarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish muammolarini to'liq hal qilish maqsadida UFA mutaxassislarini nogiron futbolni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqdilar. Ushbu dasturlarning asosiy yo'nalishlari nogironlar uchun sport musobaqalarini tashkil etish va o'tkazish paytida yuzaga keladigan asosiy muammolarni hal qilishda hududiy va mintaqaviy darajadagi davlat tuzilmalarining roli ortib borishiga, shuningdek rejalshtirilgan sport tadbirlarini maqbul moliyalashtirish muammosini har tomonlaima hal qilishga asoslangan. Assotsatsiya o'z ishini nogironlarning to'rtta toifasi bilan xalqaro versiyalarga muvofiq amalgalashiradi: 1. Amputantlar (ISODning xalqaro turi). 2. Ko'zi ojizlar (IBSA xalqaro turi). 3. Miya falaji bilan nogironlar (CP-ISRA xalqaro turi). 4. Kar sportchilar (CISS EDSO xalqaro tur nogironlari).

UFA tomonidan ishlab chiqilgan nogiron futbolni rivojlantirish dasturlari quyidagi faoliyat yo'nalishlarini o'z ichiga oladi:

1. Moliyaviy va moddiy-texnik ta'minot tizimini rivojlantirish nogironlar uchun futbol.

2. Nogironlar futboli uchun o'quv va reabilitatsiya bazasini yaratish

3. O'zbekistonda futbol musobaqalarini optimal tashkil etishni rivojlantirish

4. Xalqaro aloqalarni rivojlantirish nogironlar uchun xalqaro musobaqalarda ishtiroy etish.

Nogironligi bor odamlarni futbolni moliyaviy va moddiy-texnik qo'llab-quvvatlash tizimining asosiy elementi hududiy moliyaviy

va byudjet boshqarmasining yuqori daromadli ishlab chiqarishni (ba'zi davlat korxonalarini va tijorat tuzilmalari bilan birgalikda) ishlab chiqarishning zaxira jamg'armalaridan o'zlarining kafolatlangan moliyalashtirish shartlariga o'tishidir. Qurilish, ulgurji va chakana savdo, keng mahsulot ishlab chiqarish sohasidagi dasturlar iste'mol qilish va xizmatlar ko'rsatish, yuqorida ko'rsatilgan har bir ishlab chiqarish dasturini amaliy ravishda amalga oshirishda kasallikning turli shakllari nogironlarining faol ishtirokini ta'minlash. Nogironlar futboli bo'yicha o'quv bazasini, nogiron bolalar uchun futbol makktab-internatlarini tashkil qilish orqali yaratish mumkin. Nogironlar futboli uchun reabilitatsiya bazasini mintaqaviy reabilitatsiya tibbiy markazlari tarmog'ini tashkil qilish orqali yaratish mumkin. Ishlab chiqilgan dasturlar, O'zbekiston futbol musobaqalari sxemasini tizimlashtirish va optimallashtirishni ta'minlaydi. FIFA mutaxassislarining fikriga ko'ra, ushbu musobaqalarni uch bosqichli tashkil etish sxemasi eng maqbuldir. Taklif etilgan model imkoniyati cheklangan futbolchilar jamoalari uchun musobaqalarni o'tkazish sport taqvimiga uyg'unlikni yaratishga imkon beradi.

O'zbekiston Paralimpiya assotsiatsiyasi 2007 yildan beri mavjud. O'zbekiston nogiron sport turlarini qo'llab-quvvatlash va rivojlanish bo'yicha o'zaro aloqalarni muvosifqlashtirish uchun tuzilgan. O'zbekistondagi nogiron sportni rivojlanish bo'yicha strategik dasturlarni birgalikda ishlab chiqish uchun o'zining asosiy vazifasini barcha mavjud nogiron sport tashkilotlarining sa'y-harakatlarini o'zining yuqori sisfatli infratuzilmasi asosida birlashtirishdan iborat. So'nggi yillarda O'zbekistonda nogiron sportchilari suzish, pauerlifting, yengil aletika, futbol va boshqa ko'plab sport turlari bo'yicha O'zbekiston, Osiyo va jahon championatlarida katta yutuqlarga erishdilar.

## **2.2. Futbol 7 x 7 o'yin qoidalari va rivojlanish tarixi**

Futbol 7 x 7 bu miya shikastlanishi va boshqa nevrologik kasalliklar, shu jumladan insult va miya shikastlanishining oqibatlari bo'lgan sportchilar uchun futbol o'yini. 1978 yilda Edinburgda bo'lib o'tgan CP-ISRA xalqaro o'yinlarida u birinchi marotaba mus-

taqil sport sifatida tan olingen va shu vaqtdan beri ko'plab mamlakatlarda tez tarqalmoqda.

### Futbol 7 x 7 o'yin qoidalari

Uchrashuv etti o'yinchidan iborat ikkita jamoa, shu jumladan darvozabon o'rtasida o'tkaziladi. Butun jamoa 12 kishidan iborat, o'yin davomida uchta almashtirishga ruxsat beriladi. Agar maydonda jamoadan to'rtdan kam o'yinchi bo'lsa, o'yinni davom ettirish mumkin emas.

Uchrashuv 30 daqiqalik ikkita taymidan va 15 daqiqalik tanaffusdan iborat. Ko'proq gol urgan jamoa g'alaba qozonadi. Tarkibdagi o'yinlarda va finallarda, agar asosiy vaqtning oxirida ikkala jamoa ham teng miqdordagi gollar kiritgan bo'lsa, 10 daqiqadan iborat ikkita qo'shimcha taym belgilanadi. Agar qo'shimcha vaqt ichida ikkala jamoa ham muvaffaqiyat qozonmasa, penaltilar seriyasi belgilanadi, bunda har bir jamoadan beshtadan o'yinchi navbat bilan tepishadi. Uchrashuvni bitta hakam va yon chiziqlarda ikkita hakam baholaydi.

Musobaqalar FIFAning o'zgartirilgan qoidalariغا muvofiq o'tkaziladi. Amputantlar futbolini Olimpiya futboldan ajratib turadigan uchta muhim jihat bor: birinchidan, ofsayd pozitsiyasi yo'q; ikkinchidan, to'pni maydonga bir qo'li bilan oshirish orqali o'yinga tashlanadi (ikki qo'l bilan emas, balki otish) Uchinchidan, darvozabon to'pni qo'llari yoki oyoqlari bilan eng ko'p to'rtta qadam bilan yana o'yinga kiritishi mumkin. Darvozabonga qaytarilmasdan oldin to'p darvoza maydonidan tashqarida bo'lishi kerak.

**Tasniflash: Musobaqada ishtirokchilarning sinflarga bo'linishi.**

C5 dan C8 gacha bo'lgan sport toifalari bo'lgan sportchilar qatnashadilar.

• C5: yurish va yugurishda qiynaladigan, ammo hech qanday muammosiz turib, to'pni to'xtatib, zarba bera oladigan sportchilar. •

C6: Yuqori oyoq-qo'llarni, ayniqsa yugurishda etarli darajada nazorat va muvofiqlashtirishga ega bo'lmagan sportchilar.

• C7: Gemiplegiya bilan shug'ullanadigan sportchilar.

• C8: jismoniylar imkoniyati cheklangan sportchilar, ushbu sport

turi uchun minimal nogironlik mezonlariga javob berishadi.

Istalgan vaqtda maydondagi har bir jamoada kamida C5 yoki C6 darajadagi bitta o'yinchi bo'lishi kerak. Agar buning iloji bo'lmasa, jamoa beshta maydon o'yinchisini qo'yadi. Shu bilan birga, maydon C8 sinfiga 2 kishidan ko'p bo'lmasligi kerak.

O'yin davomida siz hassa yoki boshqa qurilmalardan foydalana olmaysiz.


Ikkita taymda 60 daqiqa davom etadi. Guruh o'yinlarida o'zaro to'qnashuvga ruxsat beriladi, ammo yarim final va final uchrashuvlarida teng vaqt bo'lgan jamoalar qo'shimcha 10 daqiqalik ikkita qo'shimcha o'yinni o'tkazishadi va agar hisob teng bo'lib qolsa, g'olib har bir jamoa uchun beshtadan urilgan penaltilar seriyasida aniqlanadi. Agar kerak bo'lsa, jamoalar bitta jamoaning g'alabasiga qadar gollar urishda davom etadilar.

7x7 futbol o'ynaydigan sportchilarda ataksiya, mushaklarning gipertenziyasi yoki atetoz - nogironlikning uch turi mavjud, ular ko'p hollarda miya shikastlanishi bilan bog'liq. O'yinchilarga C5-C8 to'rtta sifsdan biri tayinlanadi, C5 sinfiga ega bo'lgan va eng katta nogiron sportchilar ham bor. Maydondagi o'yin davomida yetti ta o'yinchi bo'lishi mumkin.

Ikki jamoa o'rtaasidaadolatlidi o'yinni ta'minlash uchun har bir jamoa har qanday vaqtda maydonda C5 yoki C6 toifasidagi bitta o'yinchidan va C8 sinfiga ikkitadan ko'p bo'lmasligi o'yinchidan bo'lishi kerak.


7x7 futbolida ofsayd pozitsiyasi qoidasi yo'q va to'pni maydonga to'pni bir qo'li bilan tashlash orqali amalga oshirish mumkin. O'yining qolgan qismi FIFA qoidalariga muvofiq o'tkaziladi.

**Maydonning o'lchamlari.** O'yin uchun maydon to'rburchak shakliga ega. Uzunligi: minimal 70 m, maksimal 75 m. Kengligi: kamida 50 m, maksimal 55 m



**16-rasim**

**Belgilash:** O'yin uchun maydonni belgilash chiziqlar yordamida amalga oshiriladi. Ushbu chiziqlar ular cheklagan maydonga kira-di. O'yin maydonini cheklaydigan ikkita uzun chiziq yon chiziqlar deb nomlanadi, ikkita qisqa chiziq gol chiziqlari deb nomlanadi. Har qanday chiziqning kengligi 12 sm dan oshmaydi, maydonning o'rtasiga tegishli belgi (nuqta) qo'yiladi.




**17-rasim**

**Jarima maydoni.** Jarima maydonning har bir yarmi oxirida quyidagicha ko'rsatiladi: Har bir darvoza ustunining ichki qismi- dan 9 m masofada joylashgan nuqtadan, darvoza chizig'iga to'g'ri burchak ostida ikkita chiziq ichki chiziq bilan chiziladi. 9 m masofa-

da bu chiziqlar yon chizig'iga parallel ravishda boshqa chiziq bilan bog'lanadi. Ushbu chiziqlar va darvoza chizig'i bilan cheklangan maydon jarima maydoni deb nomlanadi. Har bir jarima maydonchasi ichida 9 metrli belgi qo'yiladi - darvoza ustunlari orasidagi nuqtadan 9 m masofada va ulardan teng masofada. Har bir jarima maydonchasida darvozaboning belgisi qo'llaniladi (3 metr).

**Belgilash usuli.** Belgilash bo'r (chang) yoki ko'k eritma (rangli bo'yoq) bilan qo'llaniladi. Chiziqning kengligi kamida 6 sm va 12 sm dan oshmasligi kerak.

**Belgilash uchun ishlataladigan narsalar.** Maydonning burchaklariga uchlari uchli bo'limgan bayroq ustunlariga bayroqchalar o'rnatalishi mumkin. Bayroqlar o'rniga konuslar (konus shaklida-gi narsalar) o'rnatalishi mumkin. Belgilash uchun boshqa narsalar ham ishlatalishi mumkin. Belgilash uchun ishlataladigan har qanday buyumlar (bayroqlar va konuslarni o'z ichiga olgan holda) raqobatchilar uchun xavfsiz bo'lishi kerak



18-rasm

**Darvozalar.** Darvozalar har bir chiziq markazida bo'lishi kerak. Ular ikkita vertikal postlardan iborat bo'lib, ular maydonning burchaklaridan teng masofada joylashgan va tepada gorizontal bar bilan bog'langan. Darvoza ustunlari orasidagi masofa 5 m, darvoza to'sining pastki konturidan yerga qadar bo'lgan masofa 2 m. Har ikkala postlar va kesma ustunlarining kesishgan qismining kengligi va balandligi bir xil va 12 sm dan oshmaydi. Darvoza chizig'inining kengligi ustunlar va to'sining kengligiga teng. To'rlar darvoza va darvoza poydevoriga bog'langan, ular darvozabonga halaqit ber-

masligi uchun mahkam o'rnatalishi va joylashishi kerak. Darvozaning ustunlari va to'sini oq rangda bo'lishi kerak.

## 7 X 7 futbol musobaqalari qoidalari

FIFA- qoidalari, 2018 yilda tasdiqlangan miya shikastlanishi bilan bog'liq CP-ISRA bo'lgan shaxslar uchun xalqaro sport va dam olish assotsiatsiyasi qoidalari va 7x7 xalqaro futbol musobaqalarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha amaliy tajriba asosida miya shikastlanishi bilan bog'liq kasalligi bilan nogironlar futbol assotsiatsiyasi ishtirokida tashkil etildi. 26 fevral 2018 miya shikastlanishi kasalligi bilan nogironlar futbol assotsiatsiyasi Ijroiy qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan.

Miya shikastlanishi kasalligi (7 X 7) bo'lgan shaxslarning futbol qoidalari klubning chempionatidan boshlab va rasmiy xalqaro musobaqalar, jumladan, jahon va Evropa chempionatlari va Paralimpiya o'yinlarini tashkil etish va o'tkazish uchun barcha darajalarda miya shikastlanishi bilan bog'liq bo'lgan shaxslar o'rtaida futbol musobaqalarini tashkil etish va o'tkazish uchun mo'ljallangan.

Qoidalarda alohida o'rin 1-sonli qo'shimcha sifatida joylashtirilgan sportchilarning sport-tibbiy klassifikatsiyasi bo'limi hisoblanadi. Ushbu bo'limning materiallari murabbiy - o'qituvchilarga, ayniqsa, boshlang'ichlarga, miya shikastlanishi kasalligiga chalingan kelajakdagi sportchilarni barcha o'g'il-qizlar va o'smirlar orasida mashhur bo'lgan sport-futbol, adaptiv jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari va muassasalarida, internatlarda va bolalar uylarida to'g'ri tanlashda yordam beradi.

Bunga qo'shimcha ravishda joylashtirilgan kitobning bo'limida miya shikastlanishi kasalligi bo'lgan sportchilar uchun futbol guruhlarida o'quv jarayonini rejalashtirish va tashkil etish bo'yicha uslubiy tavsiyalar mavjud. (muallif. Baramdze. A.M.)

Ishtirok etish huquqi

CP-ISRA tomonidan vakolatli musobaqalar uchun, futbolchilar o'rtaida raqobat bo'lib o'tdi. Yoshlar, o'smirlar uchun musobaqlarda ishtirok etish uchun yosh chegarasi har bir alohida holatda aniqlanishi kerak.

## 1. O'yin

Miya shikastlanishi kasalligiga chalingan shaxslarning futbol musobaqaclarini o'tkazishda ushbu qoidalari FIFA -2017-2018 yil qoidalari va CP-ISRA musobaqalari qoidalalarini hisobga olgan holda qo'llaniladi. Ushbu qoidalarni nashr qilish uchun har qanday keyingi qo'shimchalar bo'lishi kerak.

O'yin maydonining o'lchamlari uzunligi 70 X 50 m va eniga kamida 30 m, maksimal 45 m bo'lishi kerak. Darvozabon darvozasi hajmi 5 X 2 m bo'lishi kerak.

## 2. To'p



• FIFA Quality PRO



• FIFA Quality



• INTERNATIONAL  
MATCHBALL STANDARD

Sifat va parametrlar. To'p sharsimon shaklga ega, teridan yoki shu maqsadlar uchun mos boshqa materialdan tayyorlangan, aylansi 71 sm dan ko'p bo'lmagan va 68 sm dan kam bo'lmagan, o'yin boshida uning og'irligi 450 grammdan oshmaydi. va kamida 410 g. havo bosimi 0,6-1,1 atmosferaga (600-1100 g / sm<sup>2</sup>) teng bosimga ega.

O'yinda yaroqsiz to'pni almashtirish.

Agar to'p o'yin davomida yorilib ketsa yoki shikastlansa, o'yin to'xtaydi va to'p o'yin to'xtagan joydan "munozarali to'p" dan zaxira to'pi bilan qaytadi va o'yin shu tarzda davom etadi. To'pni o'yin davomida faqat hakam ko'rsatganidek almashtirish mumkin.

O'yinchilar soni. Har bir jamoa 7 futbolchidan iborat bo'lib, ulardan biri darvozabon. Agar jamoalarning har biri to'rtta (4) o'yinchidan kamroq bo'lsa, o'yinni boshlash mumkin emas.

Har bir jamoaga har bir to'liq o'yinda uchta (3) o'zgarish ruxsat beriladi.

Futbolda futbolchilar quyidagi sinflar bilan cheklangan: C5, C6, C7 va C8. Har bir jamoa o'yin davomida kamida bitta C5 yoki C6 sinfidagi o'yinchiga ega bo'lishi kerak, aks holda jamoa olti futbolchi bilan o'ynashi kerak.

C8 sinfidagi o'yinchilar soni har doim ikki (2) dan oshmasligi kerak. Agar C8 sifining bir o'yinchi olib tashlansa, jamoa qolgan vaqt davomida maydonda faqat bitta C8 sinf o'yinchisiga ega bo'lishi mumkin.

**O'zgartirish tartibi.** Bitta o'yinchini ikkinchisiga almashtirish uchun quyidagi shartlar bajarilishi kerak: hakamga har qanday almashtirish haqida xabardor qilinishi kerak; Zaxira o'yinchisi o'yin maydonchasiga faqat o'yinchi almashtirganidan va hakam tomonidan signal olgandan so'ng kiradi; o'yinchi o'yin maydoniga faqat o'rтada va o'yinni to'xtatganda kiradi.

Zaxira o'rnini to'ldiruvchi maydonga kirgandan keyin to'ldirish amalga oshiriladi. Shu paytdan boshlab zaxira o'yinchi maydonga, maydonni tark etgan o'yinchi esa zaxira o'yinchisiga aylanadi. Baracha almashtirishlar hakamning o'yinda ishtirok etishdan qat'iy nazar ularning vakolati va yurisdiktsiyasiga bo'ysunadi.

**O'yindan oldin o'yinchini olib tashlash.** Uchrashuvning asosiy vaqt bosqlanishidan oldin maydondan chetlatilgan o'yinchi uchrashuvda qatnasha olmaydi. Jamoa o'yinni to'liq kuch bilan boshlaydi.

**O'yin davomida o'yinchini olib tashlash:** O'yin davomida olib tashlangan o'yinchi endi o'yinni davom ettira olmaydi. Raqib ozchilikda 10 daqiqa o'ynaydi. Bu vaqtidan keyin jamoa to'liq tarkibda o'yinni davom ettiradi. Agar jamoada o'rnbosarlar bo'lmasa, jamoa o'yinni ozchilikda davom ettiradi. Minimal o'yinchilar soni - 5 (besh) Agar jamoa 4 (to'rt) o'yinchi bilan qolsa, o'yin to'xtatiladi va jamoa 0-3 texnik mag'lubiyatini hisobga oladi, olib tashlash vaqtida bo'lgan natijadan qat'iy nazar.

**Darvozabonni almashtirish.** Har qanday boshqa o'yinchilar (maydon va zaxira o'rnbosarlari) darvozabon bilan joylarni o'zgartirishi mumkin, agar shart bo'lsa: hakam bu haqida almashtirilishidan oldin xabardor qilingan; almashtirish o'yin to'xtatilgan vaqtida amalga oshiriladi.

**Qoida buzishlar va jazolar.** Agar o'rnbosar maydonga hakamning ruxsatisiz kirma: o'yin to'xtaydi; zaxira o'yinchisiga sariq kartochka haqida ogohlantirish ko'rsatiladi va maydonni tark etish taklif etiladi; o'yin to'xtatilgan paytda to'p bo'sh joyda "erkin zarban" bilan o'yin davom ettiriladi. Agar o'yinchi hakamning oldindan

ruxsatisiz darvozabon bilan joylarni o'zgartirsa: o'yin davom etadi; keyingi safar to'p o'yindan chiqib ketganda, tegishli o'yinchilarga sariq kartochka ko'rsatiladi ogohlantirish beriladi. Tartibni buzgalligi uchun (maydonda bitta jamoaning sakkiztadan ortiq o'yinchisi bor), maydonga so'nggi (oxirgi) futbolchilar sariq kartochka bilan ogohlantiradilar. Ushbu barcha holatlarda sudya ustunlik prinsipiiga amal qilishi kerak.

**O'yoni davom ettirish.** Agar o'yinchini hakam tomonidan ogohlantirilsa, o'yin to'xtatilsa: raqib jamoa o'yinchisi to'p to'xtatilgan joydan jarima zarbasi bilan o'yinni davom ettiradi.

**O'yinchilarni kiyimi.** FIFA qoidalariga muvosiq o'tiladi. Identifikasiya qilish uchun har bir sportchi futbolkaning orqa tomonidagi raqam bilan o'ynashi kerak. O'yinchini musobaqa davomida ushbu raqamga ega bo'lishi kerak. Darvozabon I raqamiga ega va boshqa raqamda maydonda o'ynasa, uni ishlatalishi mumkin.

Jamoa kiyim o'yinchilari sport kiyimlari va sport poyafzali bilan jihozlangan bo'lishi kerak.

**Kiyim ko'rinishi.** Futbol maydonidagi barcha futbolchilarda bir xil futbolkalar bo'lishi kerak. Futbolchilar faqat maydondan tashqarida futbolkalarni almashtirishlari mumkin.

**Darvozabonlar.** Har bir darvozabon kiyimining rangi qolgan o'yinchilar va hakam kiyimidan farq qilishi kerak.

### 2.3. 7 x 7 Futbolda Xakamlik qilish. Xakamning huquq va majburiyatları

**Hakamning vakolatlari.** Har bir uchrashuvni u tayinlangan o'yinda o'yin qoidalariga rioya qilishni ta'minlash uchun barcha vakolatlarga ega bo'lgan hakam boshqaradi.

**Hakamning huquq va majburiyatları:** O'yin qoidalariga rioya qilinishini ta'minlaydi; yordamchi yoki zaxira hakami bilan birlgilikda (agar bo'sha) o'yining borishini boshqaradi; ishlataligan barcha to'plarning 2-qoida talablariga muvosiqligini ta'minlaydi; o'yinchilar jihozlarining 4-qoida talablariga muvosiqligini ta'minlaydi; o'yining boshlanish vaqtini va tanaffusning davomiyligini aniqlaydi; O'yin vaqtini saqlaydi va uchrashuvni qayd qiladi; ma-

sofadan turib o'yinchining jarima vaqtini kuzatadi; o'z xohishiga ko'ra qoidalarni buzgan taqdirda vaqtini to'xtatish, vaqtincha to'xtatib turish yoki to'liq bekor qilish; tashqi aralashuv bo'lsa, o'yinni to'xtatadi, vaqtincha to'xtatadi yoki butunlay bekor qiladi; agar uning fikriga ko'ra, o'yinchi jiddiy jarohat olgan bo'lsa va uning maydondan tashqariga chiqib ketishini ta'minlaydi, agar o'yinchi, uning fikriga ko'ra, ozgina jarohat olgan bo'lsa, o'yin to'pni tark etgunga qadar o'yinni davom ettirishga imkon berdi; jarohatdan qon ketganda o'yinchining maydonni tark etishini ta'minlaydi. O'yinchi maydonga qon ketish to'xtaganiga ishonch hosil qilib, hakamning ko'rsatmasi bilan qaytishi mumkin; agar o'yinchi bir vaqtning o'zida bir nechta qoidabuzarliklarni sodir etsa, u jiddiyroq qoidabuzarlik uchun jazolanadi: ogohlantirish yoki olib tashlash bilan jazolanadigan qoidabuzarliklar uchun aybdor bo'lgan futbolchilarga nisbatan intizomiy choralar ko'radi. U zudlik bilan bunday choralar ni ko'rishiga majbur emas, lekin to'p o'yindan chiqib ketishi bilanoq buni qilish kerak; o'zlarini noto'g'ri tutgan jamoalarning mansabdor shaxslariga nisbatan choralar ko'radi va o'z xohishiga ko'ra ularni maydondan va unga yaqin zonalardan chiqarib yuborishi mumkin; o'zi ko'rmagan voqealar bo'yicha o'z yordamchisining yoki zaxira sudyasining tavsiyasiga asosida harakat qiladi; ruxsatsiz shaxslar maydonga chiqmasligini ta'minlaydi; vaqt to'xtaganidan keyin uni davom ettiradi; Tegishli organ tomonidan o'yin to'g'risida hisobot, shu jumladan o'yinchilarga yoki jamoa amaldorlariga nisbatan ko'rilgan intizomiy choralar, shuningdek o'yin oldidan, undan keyin sodir bo'lgan boshqa hodisalar to'g'risida ma'lumot taqdim etadi.

**Hakam kiyimining ko'rinishi.** Hakam formasining rangi o'ynayotgan jamoalar formasining rangidan farq qilishi kerak.

**Hakam qarorlari.** O'yin bilan bog'liq faktlar bo'yicha hakamning qarorlari qat'iyidir. Hakam o'z xatosini anglagan yoki yordamchisining tavsiyasiga binoan qarorni o'zgartirishi mumkin, ammo u o'yinni qaytdan boshlamagan bo'lsa.

**O'yinni davom ettirish.** Agar hakam ogohlantirish berish uchun o'yinni to'xtatsa: o'yin hakam o'yinni to'xtatib turgan vaqtida qarama-qarshi jamoadan kelgan o'yinchi tomonidan jarima zarbasi bilan qaytariladi.

FIFA qoidalari muvofiq hakamning vazifalari.

Har bir qarorga shikoyat qilish mumkin emas. Apellyatsiya berilishi mumkin bo'lgan qarorlar va ko'rib chiqiladigan apellyatsiyalar protsessual sabablarga ega bo'lishi kerak. Protsessual motivlar tasniflash qo'mitasi tomonidan qat'yan cheklangan:

-qaror qabul qilish vakolat yoki vakolatga ega emas, chunki CP-ISRA boshqaruvi hujjalarda belgilangan;

-Nizomda aks ettirilgan yoki CP-ISRA siyosati, shu jumladan tanlov siyosati tomonidan tasdiqlangan tartib-qoidalarni buzish sодир bo'ldi;

- yoki qaror bosim ostida qabul qilindi.

Apellyatsiya tekshiruvi.

O'zbekiston Respublikasi sport-texnika qo'mitasi (yoki tayinlangan shaxs) ning vakolatli agenti shikoyat qilish uchun tegishli sabablar siyosat va protseduralar talablariga javob beradimi yoki yo'qligini aniqlashi kerak.

Agar sabablarning yetishmasligi uchun apellyatsiyani ko'rib chiqishdan bosh tortsa, shikoyatchi ushbu qarorni sabablarini tushuntirib beradigan yozma ravishda xabardor qilishi kerak. Ushbu qaror faqat Sport va texnik qo'mita rahbari yoki tayinlangan shaxs tomonidan qabul qilinadi va shikoyat qilinishi mumkin emas.

Apellyatsiya guruhi.

Agar rahbar, Sport va texnik qo'mita yoki tayinlangan shaxs

apellyatsiya uchun sabablarning yetarligidan qoniqsa, ular apellyatsiya shikoyati asl nusxasini olganidan so'ng 14 kun ichida apellyatsiya guruhini (bundan keyin "guruh" deb ataladi) quyidagi tarzda to'playdi: guruh apellyatsiya instantsiyasini qabul qilishda ishtirok etish bilan bog'liq bo'Imagan manfaatdor tomonlar bilan muhim munosabatlarga ega bo'Imagan va boshqa har qanday haqiqiy yoki da'vo qilingan noto'g'ri yoki Guruh sportchini tasniflash bo'yicha qaror qabul qilgan klassifikatorlar guruhiga qaraganda teng yoki undan yuqori darajadagi treninglarni o'z ichiga olishi kerak.

Guruh rahbari, Sport-texnika qo'mitasi yoki tayinlangan shaxs guruh a'zolari orasidan guruh raisini tayinlashi mumkin. Agar rabbabar, Sport va texnik qo'mita yoki tayinlangan shaxs rais deb nomlanmasa, guruh a'zolari raisni o'zlari tanlaydi.

#### Dastlabki uchrashuv.

Guruh dastlabki yig'ilishda apellyatsiya holatini aniqlashi mumkin. Dastlabki uchrashuvda muhokama qilinadigan masalalar quyidigidan iborat:

- apellyatsiya formati (hujjat bilan tekshirish, og'zaki muhokama qilish yoki ikkalasini ham birlashtirish);
- hujjatlarni almashish uchun vaqt;
- muhokama qilish uchun savollarni aniqlash;
- shikoyatni ko'rib chiqishda taqdim etilishi kerak bo'lgan dallarni aniqlash;
- ko'rib chiqish tartibi;
- agar u og'zaki bo'lsa, muhokama qilinadigan joy;
- guvohlarni aniqlash;
- manfaatdor tomonlarni aniqlash;
- va shikoyatni tezlashtirishga yordam beradigan boshqa protsessual masalalar. Guruh ushbu dastlabki masalalarni guruh nomidan hal qilish uchun o'z raisiga vakolat berishi mumkin.

#### Ko'rib chiqish tartibi.

Agar guruh apellyatsiya shikoyatini og'zaki muhokama qilish orqali amalga oshirishga qaror qilsa, u guruh zarur deb hisoblagan tartib-qoidalarga muvofiq amalga oshirilishi kerak:

- munozara guruh tayinlanganidan boshlab 21 kun ichida o'tkaziladi;
- apellyatsiya va respondentga 10 kun davomida muhokama qil-

ingan sana, vaqt va joy haqida xabar beriladi;

- kvorum guruhning barcha uch ishtirokchisini tashkil qiladi. Qarorlar ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi, rais hal qiluvchi ovozga ega.

Agar guruh tomonidan qabul qilingan qaror boshqa tomonning mansaatlariiga juda chuqur ta'sir qilishi mumkin bo'lsa, u ushbu siyosatga muvofiq unga berilgan huquq bo'yicha apellyatsiya berishga murojaat qilishi kerak, keyin bu partiya muhokama qilin-gan masala bo'yicha apellyatsiya berishga xizmat qiladi.

Har qanday partiya vakil yoki maslahatchi, shu jumladan yuridik maslahatchi bo'lishi mumkin.

Guruh, apellyatsiya muhokamasida boshqa birov ishtirok etishi mumkinligi haqida qaror qabul qilishi mumkin.

Iqtisodiy sarf-xarajatlar uchun guruh muhokamani o'tkazishi mumkin telefon orqali murojaat qilish konferentsiya orqali.

Apelliatsiyani hujjatli ko'rib chiqish tartibi.

Agar guruh apellyatsiya arizasini hujjatlashtirish orqali ko'rib chiqishga qaror qilsa, u shikoyatni ko'rib chiqish jarayonini tegishli deb hisoblagan tartib-qoidalar bilan boshqaradi: barcha tomonlarga guruhg'a yozma ariza berish, boshqa tomonlarning yozma ariza larini ko'rib chiqish va yozma rad etish va dalillarni taqdim etish imkoniyati beriladi; 3-bobda belgilangan qo'shimcha printsiplar va vaql jadvallariga muvofiq.

Apelliatsiya qarorlari.

Apelliatsiya bo'yicha qaror qabul qilingandan so'ng 14 kun ichida guruh uni sabablарini ko'rsatgan holda yozma ravishda yuborishi kerak. Qaror quyidagi formatga javob berishi kerak:

- qaror qabul qilingan savol;
- savolning tarixi;
- faktlarni ro'yxatga olish;
- vakolatlar ko'rib chiqildi;
- qaror va qaror sabablari;

Qaror qabul qilishda, guruh bu masala bo'yicha dastlabki qarorni qabul qilganidan ko'ra ko'proq vakolatga ega emas.

Guruh qaror qabul qilishi mumkin: shikoyatni rad etish va qaror qabul qilinganligini tasdiqlash; yoki apellyatsiya berish va materialni yangi qaror qabul qilish uchun dastlabki qaror qabul qil-

gan shaxsga qaytarib yuborish; yoki apellyatsiya berish va qarorni o'zgartirish, lekin agar xato ro'y berganligi aniqlansa va bu xato noto'g'ri bajarilgan protsedura, vaqt yo'qligi yoki betaraflik etarli emasligi sababli dastlabki qarorni qabul qilganlar tomonidan; va tomonlarning har qanday qonuniy badallari va huquqiy xarajatlaridan tashqari, apellyatsiya shikoyatini ko'rib chiqish xarajatlari qanday taqsimlanishini aniqlash.

Qaror jamoat e'lönüning masalasi hisoblanadi. Qarorning nusxasi har bir tarafga Sport-texnik qo'mita rahbariga yoki tayinlangan shaxsga yuboriladi.

Favqulodda vaziyatlarda guruh qarorni og'zaki ravishda e'lön qilishi yoki qabul qilingan qaror bo'yicha yozma qisqacha xulosani tuzishi mumkin, keyinchalik yozma qaror qabul qilish uchun sabablarni ko'rsatib, bobda ko'rsatilgan vaqt ichida sabablarni ko'rsatishi mumkin.

Vaqt oralig'i.

Agar muhokamadagi holatlar apellyatsiya shikoyati siyosati o'z vaqtida ko'rib chiqilishiga yo'l qo'ymasa yoki apellyatsiya ushbu siyosat tomonidan belgilangan vaqt ichida ko'rib chiqilmasligi uchun vaziyat yuzaga kelsa, guruh vaqtinchalik x ramkasini o'zgartirish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin. HHH

Murojaatni ko'rib chiqish joyi.

Apellyatsiya shikoyatini ko'rib chiqish Sport-texnika qo'mitasi rahbari yoki tayinlangan shaxs tomonidan belgilanadigan joyda, agar guruh apellyatsiya shikoyatini ko'rib chiqish tartibi konferentsiya orqali amalga oshirilishi yoki muayyan so'rov bo'yicha guruh tomonidan boshqa joyga tayinlanishi kerakligini hal qilmasa.

Yakuniy va majburiy qaror.

Apellyatsiya guruhining qarori partiyalar va CP-ISRA barcha a'zolari uchun yakuniy va majburiy bo'lishi kerak, u faqat CP-ISRA nizolarni hal qilish tartibiga muvofiq ko'rib chiqilishi mumkin.

Nizolarni hal qilish tartibi bilan bog'liq tuzatishlar taklif qilinmaguncha, na da'vo, na sud ko'rib chiqish yoki boshqa huquqiy tartib-qoidalar haqida CP-ISRA qarshi da'vo qilinishi kerak. Tomonlar hech qanday sharoitda bir partiya CP-ISRA hakamlik bilan bog'liq bir da'vo taqdim etishi mumkin bo'lgan ijro yozma arbitraj bitimini tuzadi.

### 4.3. Dori vositalarini qo'llash

Tasniflash vaqtida klassifikatorlar guruhi sportchining tug'ma nevrologik xususiyatlarini aniqlashi kerak. Dori-darmonlar, ayniqsa noto'g'ri dozalarda qabul qilinganlar, sportchining tug'ma nevrologik holatidan kattaroq nevrologik funktsiyaning aniq yomonlashishiga olib kelishi mumkin. Klassifikatorlar guruhi buni bilishi kerak. Ko'pincha miya yarim palsi sportchilari tomonidan yurak xurujlari uchun dori-darmonlarni va anti-spastik vositalarni o'z ichiga olgan turli xil dorilar mayjud. O'tgan yil davomida toksin botulini qabul qilgan har bir kishi qayta tasniflanishi kerak.

Yurak xurujlari uchun dori-darmonlarning odatda vakili fenitoin dilantindir. Oddiy terapevtik dozada bu dori sportchining nevrologik funktsiyalariga ta'sir qilmaydi. Biroq, agar ushbu preparatni qo'llash terapevtik oraliqdan oshib, toksik darajaga yetsa, u ataksiyaga olib kelishi mumkin. Ataksiyaga olib keladigan dori vaqtinchalik ta'sirga ega ekanligini unutmang, bu sportchi dori-darmonlarni yanada qulay dozaga o'zgartirganda yo'qoladi. Sportchini baholashda klassifikatorlar dylantin kabi yurak vositalarini olish imkoniyatini taqdim etishi kerak. Ataksiyaga qo'shimcha ravishda, nistagmus deb ataladigan o'quvchilarning harakati ham aniqlanadi.

Boshqa dorilar guruhi-antisistik dorilar ba'zan miya yarim palsi bo'lgan sportchilar tomonidan qo'llaniladi. Ushbu dorilar, masalan, baklofen va dantrolenni o'z ichiga oladi. Baklofen Markaziy asab tizimiga ta'sir ko'rsatadi va refleks kamarini kamaytiradi. Ushbu dorilarning katta dozalari tinchlantirishi mumkin. Boshqa tomonidan, dantrolen mushak darajasida harakat qiladi va klassifikatorlar e'tiborga olinishi kerak bo'lgan ushbu dori-darmonlarni qabul qilishning yon ta'siri-zaiflik paydo bo'lishi. Ushbu dorilarning ikkalaasi ham tegishli terapevtik dozada ishlataliganda, aslida funktsiyani oshiradi va uni hech qachon kamaytirmsligi kerak.

Natijada, tasniflash jarayonida guruh sportchining olgan dori-darmonlariga e'tibor berishlari kerak. Ko'pgina sportchilar tegishli terapevtik dozalarda dori-darmonlarni qabul qilishsa-da, preparatni qabul qilishning noto'g'ri yoki toksik dozalari hisobga olinishi kerak. Agar shunday bo'lsa, sportchining tasnifi sportchining dori darjasini optimallashtirilgunga qadar kechiktirilishi kerak. Ta'rif birin-

chi navbatda klassifikatorlar guruhining shifokori tomonidan amalgalashirilishi kerak. Ko'pincha, qonda dori darajasini aniqlamasdan qilish qiyin, lekin hali ham hisobga olinishi kerak

#### **4.4. Futbol 5x5 sport turiga tavsif va o'yin qoidalari**

Ko'zi ojizlar o'rtaсидаги биринчиjahon championati 1986 yilda Ispaniyada o'tkazilgan. Ko'zi ojizlar uchun futbol 2004 yil Paralimpiya o'yinlari dasturiga kiritilgan. 2004 yil Paralimpiya o'yinlari Braziliya Argentina bilan o'yinning asosiy vaqtida hisob ochilmaydi va penaltilar bahsida 3-2 natija bilan Braziliyaliklar muvaffaqiyat qozonishdi.

Xalqaro Ko'zi ojizlar federatsiyasi (IBSA) ning futbol bo'yicha quyi qo'mitasi Xalqaro assotsiatsiya futbol federatsiyasining (FIFA) o'zgartirilgan qoidalariiga binoan ushbu sport turini boshqaradi. Futbol bo'yicha bиринчи milliy championat 1986 yilda Ispaniyada bo'lib o'tgan. O'shandan beri bu sport butun dunyoda jadal rivojlaniib bormoqda,

#### **O'yin qoidalari**

**Maydon va darvoza.** Maydonning o'lchami 40 dan 20 metr gacha. Maydon atrofi balandligi 1 m bo'lgan devor bilan o'ralgan bo'ladi.



**21-rasm**

Darvozaning o'lchamlari kengligi 3 metr va balandligi 2 metrdir.

**To'p.** Ko'zi ojizlar uchun futbol to'pi "oddiy to'p" dan og'irroqdir. O'yinchilarga zarar bermaslik uchun, chayqalish yoki o'yinchilar to'qnashgan paytida jarohat olmasliklari uchun va to'pni boshqa to'plardan farqi uning ichida ovoz chiqaradigan metal bo'ladi shu orqali o'yinchilar to'pning harakatini nazorat qiladi, shuning uchun to'p doimo eshitiladi, Yopiq maydonlarda shovqinni kamaytirish moslamasi bo'lgan maxsus to'p ishlataladi. O'yin davomida tomoshabinlar jum bo'lishlari kerak, shunda o'yinchilar to'pning harakatlanishini eshitishlari va shuningdek, ko'rsatma beruvchining ovoziga javob berishlari mumkin

**O'yinchilarni almashtirishlar.** Maydon o'yinchilarining soni 5 tani tashkil qiladi, Darvozabon - jamoada qolganlardan ko'ra yaxshiroq ko'rindigan yagona futbolchi. Darvozabon sheriklarining hujumlarini boshqaradi, qayerdan o'tish kerakligini buyuradi. Ammo u raqib darvozasiga zarba bera olmaydi.

Ko'zi ojizlar uchun futbolda almashtirishlar soni cheksiz, ammo zaxirada 5 nafar futbolchi bo'lishi kerak.

**Hakamlar.** Hakam o'yinchilarga maydonda harakatlanishda yordam beradi.

**O'yin davomiyligi.** O'yin 25 daqiqa ikkita bo'limdan iborat.

**Jarimlar** birinchi, ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi jarim to'plari qoida buzilgan joydan o'yinga kiritiladi. Beshinchi va undan keyingi qoidabuzarliklar jarima yani penalti bilan jazolanadilar – penalti 8 metrдан amalgalash oshiriladi. O'yinning barcha ishtirokchilari, murabbiy va darvozabondan tashqari, o'yinchilar darvozabon ko'rsatmlarini va to'pning tovushlarini eshitishlari uchun gapirish huquqididan mahrum. Jamoa murabbiyi va darvozabonga o'yin davomida "sakkiz metr, 45 daraja, otish!" Kabi maslahatlar berilishi mumkin. Himoyadagi bo'shliqlarni topishda futbolchilar ushbu ma'lumotlardan qanday foydalanishlarini va to'pni darvozagaga o'tkazish uchun mohirona foydalanadilar.

Bitta o'yinchiga hujum qilganda, ikkinchisi: "Gritar!" (Ispan tilidan "Men ketyapman") deb baqirishga majbur. O'yinchi bir nechta noaniqliklar qilishi mumkin va o'yin davomida beshta shaxsiy qoidabuzarlik qilgan har qanday o'yinchi o'yin maydonini tark etishi shart.



22-rasm

### O‘yin qoidalari va ko‘zi ojizlar futbolni qanday o‘ynashi haqida

Ochiq mashg‘ulotni boshlashdan oldin jamoalarni shakllantirish. Maydonda o‘yinchilar kichik guruhlarda ish olib borishadi, ularga jamoaning yagona ko‘zida niqobi yo‘q o‘yinchilari - darvozabonlar rahbarlik qilishadi.


Ko‘zi ojizlar futboli oddiy futzalga o‘xshaydi. Ammo bir nechta muhim farqlar mavjud. Birinchidan, barcha maydon o‘yinchilari ko‘r. Hamma teng sharoitda bo‘lishi uchun barcha o‘yinchilar yengil nurni o‘tkazmaydigan matodan ko‘zlariga tutib oladilar, ularni o‘yinchilar «ko‘zoynak» deb ataydilar.



23-rasm

Futbolchilar to'pni ko'rmayotgan bo'lsalar ham, o'yinning tezligi va sur'ati juda yuqori bo'lib qolmoqda.

To'pni o'zingizdan uzoqda o'ynasangiz, to'pni boshqalarga os-hira olmaysiz, aks holda siz uni yo'qtasiz, shuning uchun o'yinchilar qisqa qadamlar bilan harakatlanib, doimiy ravishda bir oyog'idan ikkinchisiga to'pni tashlaydilar.



#### 24-rasm

Har bir jamoaning darvozalari ortida jamoaga o'yinchilar, to'p va raqibla

Darvozabon himoyachilariga aytadi. Bu xuddi shunday eshitiladi: " to'p chap tomonda! Xo'sh, o'ngga yugur va chapda aylan! Yaxshi, lekin o'ng tomonda bir yarim metr" deb o'yinchilarni may-donda harakatlanishini taminlaydi.

## I-jadval


### Ko'zi ojizlar futboli bo'yicha o'tkazilgan jahon championati

Yili	O'tkazilgan joyi	G'olib	Hisob	Ikkinchchi o'rini	Uchinchi o'rini	Hisob	To'rtinchi o'rini	Jamshidlar soni
1998 <i>Details</i>			1-0			2-0		6
2000 <i>Details</i>			3-0			4-0		8
2002 <i>Details</i>			4-2			2-0		9
2006 <i>Details</i>			—0			2-1		8
2010 <i>Details</i>			2-0			1-0		10
2014 <i>Details</i>			1-0			0-0 (2-0 in penalties)		12
2018 <i>Details</i>			2-0			2-1		16

#### 4.5. Amputantlar futbolining paydo bo'lish va rivojlanishi

Amputantlar futbolining asoschisi Don Bennet hisoblanadi. U AQShda Sietl (Vashington) shahrida tug'ilgan Don Bennet doim faol bo'lgan – u chang'ida uchish, qayiqda suzish, toqqa chiqishni juda xush ko'rardi. Don Bennet qayiqda suzib yurgan payti tasodifan halokatga uchraydi va oyog'idan ayrıldi.

Bu voqealarning hayotini o'zgarishiga olib keldi. Oradan bir necha yillar o'tib Don Vashington cho'qqisiga chiqqan birinchi amputant bo'ldi. Don Bennett o'z



25-rasm. Don Bennett

hovlisida o'g'lining basketbol bilan shug'ullanishini tomosha qilar, o'g'liga to'pni uzatib turar edi. Don Bennett uchun to'pni qo'l bilan olishdan ko'ra uni tepib yuborish qulay edi. Shu tariqa Beenett futbol bilan ham shug'llana boshladi. O'sha paytda Bennett futboldan ko'ra chang'i sporti bilan ko'proq shug'ullangan. Lekin yoz oylarida Bennett va uning 7-nafar chang'ichi do'stlari tog'da qor yo'qligi sababli futbol bilan shug'illanishni boshladilar. Ular uchun futbol vaqtini maroqli o'tkazish va yuqori sport formasini ushlab turish vazifasini ham bajardi.

Don Bennett shu tariqa amputantlar futbolining asoschisi bo'lib goldi, 1985 yilda Bill Barri, Kanada va AQShning jamoaviy tajribasiga ega bo'lgan futbol murabbiyi, Sietl nogironlar sporti va dam olish uyushmasi (ShSRA) qoshidagi jamoanining murabbiyi bo'ldi. U oxir-oqibat "Amputee Soccer International" tashkil qildi. Bennett jamoaning menejeri sisatida xizmat qilishni davom ettirdi. Uning sa'y-harakatlari bilan Don va Sietl guruhining boshqa a'zolari ko'magida sport boshqa mamlakatlarda ham yo'lga qo'yildi. Barri Markaziy Amerika va Sharqiy Evropa bo'ylab sayohat qilib, o'yinni tomosha qilishni istagan har bir kishiga amputantlar futbolini tanishtirdi.

1984 AQShning Vashington, Sietl shahrida futbol bo'yicha amputantlar o'rtaida birinchi xalqaro turnir bo'lib o'tdi. Kanada va Markaziy Amerikaning Amerika jamoalari ishtiroy etishadi. O'yinning dastlabki bir necha yilda gollar reglamentning kattaligicha goldi va o'yin amerika uslubidagi futbol maydonida o'tkazildi. Mashhur Boeing aviakompaniyasi o'yinning asosiy qo'llab-quvvatlovchisiga aylandi, 1986 yildan 1991 yilgacha har yili o'tkaziladigan xalqaro championat tadbirlariga homiylik qildi. Barrining qobiliyatlaridan biri boshqa yirik sport tadbirlari bilan birqalikda o'tkazilgan ko'rgazma o'yinlari orqali ommaviy axborot vositalarining e'tiborini jalb qilish edi: 1984 yil Sietl Memorial stadionida futbol bo'yicha AQSh olimpiya terma jamoasi safari paytda 8000 kishi qatnashdi. 1988 yilda Angliyada doktor Gvin Tomas tomonidan amputant futboli joriy etildi. Gvin Tomas, Britaniya Ampute sport assotsiatsiyasi, reabilitatsiya raxbari sisatida faoliyat yuritar edi. Keyinchalik, Angliya 1988 yilgi Jahon championati uchun jamoani Sietlga yubordi. Angliya yopiq musobaqada g'olib chiqdi va tashqi musobaqada

bronza (Meksika (oltin) va AQSh) dan ortda qoldi. 1988-yilda Barri O'zbekistonda amputantlar futboli bilan shug'ullanadi. 1989 yil Rossiya va Braziliya amputantlar o'rtaida futbol dasturlarini tuzdilar va jamoalarni championatlarga yuborishdi. 1991 yil Toshkentda (O'zbekiston) Birinchi Jahan kubogi bo'lib o'tdi. „Ampute Soccer” har xil madaniyat va nuqtai nazarga ega bo'lgan odamlar do'stlik va sportda birlashishi mumkin bo'lgan maydonni taqdim etadi. 1998 yil, Avgust Jahan championati, Manchester, Angliya.

**Oltin – Rossiya**

**Kumush – O'zbekiston**

**Bronza – Braziliya**

1998 yil dekabr O'yining birinchi rasmiy boshqaruvi organi – Xalqaro Amputantlar Futbol Federatsiyasi, Moskva shahrida (Rossiya) tashkil etildi.

*2-jadval*

#### Jahon championatlari

Yili	O'tkazilgan joyi	Champion	2-o'rinni	3-o'rinni	4-o'rinni
1984	 AQSh				
1988	 AQSh	 Salvador	 AQSh	 Angliya	
1989	 AQSh				
1991	 O'zbekiston				

<u>1998</u>					
<u>2002</u>					
<u>2003</u>					
<u>2005</u>					
<u>2007</u>					
<u>2010</u>					
<u>2012</u>					
<u>2014</u>					
<u>2018</u>					

O'zbekiston amputantlar teama jamoasi 2007-2010-2012 yillardagi jahon championatlarida g'oliblikni qo'lga kiritgan.



Rustam Qoriyev  
O'zbekistonni ketma-  
ket uch marta Jahon  
chempanti g'olibligiga  
olib chiqqan murabbiy



O'zbekiston amputantlar terma  
jamoasi Rossiyada futbol bo'yicha  
amputantlar o'rtaida xalqaro  
kubogi turnirda faxirli 1-o'ranni  
qo'liga kiritishgan

## 26-rasm



## 27-rasm

2014-yil Amputantlar terma jamoamiz Sochida xalqaro musobaqa  
g'olib bo'lgan.

## **4.6. Futbol o'yin qoidalari**

### **1-qoida: Uchrashuv o'tkaziladigan maydon**

O'yin o'tkaziladigan maydon to'rtburchak holatda bo'lishi zarur. Maydonning yon tomoni (ya'ni bo'y) darvoza ortidan (ya'ni enidan) katta bo'lishi kerak. Bo'yiga: minimum 90 m, maksimum 120 m

Eniga: minimum 45 m, maksimum 90 m

Xalqaro o'yinlar uchun:

Bo'yiga: minimum 100 m, maksimum 110 m

Eniga: minimum 64 m, maksimum 75 m

Maydondagi chiziqlar

O'yin o'tkaziladigan maydon chiziqlar bilan belgilanadi va ushbu chiziqlar ham maydon tarkibiga kiradi. Ikkita uzun maydonni ajratuvchi chiziqlar – yon chiziqlar, ikkita kichkina chiziqlar esa – darvoza chizig'i deb ataladi.

Maydon markazidagi chiziq o'yin o'tkaziladigan maydonni teng ikkiga ajratib turadi. Ushbu markazdagagi chiziqning o'rtasida markaziy belgi mavjud. Ushbu markaziy belgidan radiusi 9,15 m bo'lgan aylana chiziladi.

### **Darvoza maydoni**

Maydonning har ikki tomonida darvoza maydoni mavjud bo'lib, u quyidagicha joylashgan: Darvoza chizig'idan 5,5 metr masofada darvozani har bir ustunining ichki tomonidan parallel chiziq tortiladi. Bu chiziqning uzunligi ham 5,5 metr bo'ladi. Bu uzunlikdagagi chiziqning oxiri perpendekulyar tarzda darvoza chizig'i bilan tutashadi. Shu shakldagi to'rtburchak darvoza maydoni deb ataladi.

### **Jarima maydoni**

Maydonning har ikki tomonida jarima maydoni mavjud bulib, u quyidagicha joylashgan:

Darvoza chizig'idan 16,5 metr masofada darvozani har bir ustunining ichki tomonidan parallel chiziq tortiladi. Bu kesmaning uzun-

ligi ham 16,5 metr bo'ldi. Bu uzunlikdagi chiziqning oxiri perpendicular tarzda darvoza chizig'i bilan tutashadi. Shu shakldagi to'rtburchak jarima maydoni deb ataladi.


Har ikkala maydonlar o'tasida darvoza chizig'idan 11 metr masofada hamda darvoza ustunlaridan teng masofada 11-metrlik belgi qo'yiladi. Har bir jarima maydoni chizig'i tashqarisidan radiusi 9,15 metr bo'lgan yarim aylana chiziladi va uning markazi 11-metrlik nuqta vazifasini o'taydi.

### **Maydon burchagidagi bayroqlar**

O'yin o'tkaziladigan maydonning har bir burchagiga uzunligi 1,5 metrdan oshmagan ustunlar o'rnatiladi. Bu ustunning tepe uchi o'tkir bo'lmasligi va ustunga qalin matoli bayroq ilingan bo'lishi shart. Ushbu bayroqlar yana maydon markazini ajratib turuvchi chiziqning oxirlariga, maydondan tashqariga va yon chiziqdan 1 metr uzoqlikkacha o'rnatilishi ham mumkin.

### **Burchak sektori**

Har bir maydon burchagidagi bayroq asosida oysimon chiziq o'tkaziladi, ushbu chiziq burchakdagi bayroqdan 1 metr radiusdagi o'lchamda chiziladi.



**28-rasm**

## Darvoza

Har ikki darvoza chizig'ining o'rtafiga darvoza o'rnatiladi. Darvoza ikki vertikal ustundan iborat bo'lib, maydon burchagidagi bayroqlardan teng masofada joylashgan. Ushbu ikki ustunni bitta gorizontal joylashgan to'sin birlashtirib turadi.

Darvoza ustunlarining orasi 7,32 metr, darvoza to'sini yerdan 2,44 metr masofada joylashgan bo'lishi kerak.

Ikkala ustun va to'sin ham bir xil kenglikda (12 sm gacha) bo'lishi zarur. Darvoza ichida chiziq ham ustunlar va to'sinning kengligida chizilgan bo'lishi zarur. Darvozaga va darvoza ichiga darvozabonlarga xalaqit qilmaydigan qilib darvoza to'rlarini o'rnatish kerak. Darvoza ustunlari va to'sin oq rangda bo'lishi zarur.

## Xavfsizlik

Darvozalar yeiga mahkam o'rnatilgan bo'lishi kerak, ko'chma darvozalar esa yuqoridagi talablarga javob bersagina foydalanish mumkin.

### 2-qoida: To'p

#### To'p uchun xom-ashyo va texnik ma'lumotlar:

To'p: Dumaloq shaklda bo'lishi;

Teri yoki shunga o'xhash xom-ashyodan tayyorlangan bo'lishi;

Hajmi 70 sm kubdan ko'p yoki 68 sm kubdan kam bo'lmasligi;

Uchrashuv boshlanish arafasida 410gr-450 gr gacha bo'lishi;

To'p ichidagi bosim me'yori 0,6-1,1 atm(600-1100 g/sm) ga teng bo'lishi kerak.

#### Yaroqsiz holatga kelgan to'pni almashtirish

Agar to'p o'yin paytida o'z holatini yo'qotsa, unda:

Uchrashuvni to'xtatish zarur,

To'p almashtirilgandan so'ng o'yin to'xtagan nuqtadan «baxsli to'p» orqali davom ettirish zarur.

Agar to'p o'z holatini: maydon tashqarisiga chiqib ketganda, jarima to'pi belgilanganda, burchak to'pi tepilayotganda, 11-metri jarima to'pi tepilayotganda, yon chiziqdan o'yinga kiritilayotgan

**paytda yo'qotsa, unda:**

To'p almashtirilgandan so'ng o'yin to'p kiritilishi bilan davom ettirilishi ko'zda tutiladi. O'yin paytida hakamning ruxsatisiz to'pni almashtirish mumkin emas.

### **3-qoida: O'yinchilar soni**

#### **O'yinchilar:**

O'yinda ikki jamoa har birida 11 tadan oshiq bo'lнagan o'yinchi qatnashadi. 11 o'yinchidan bittasi darvozabon bo'lishi kerak. Agar jamoalarda 7 tadan kam o'yinchi bo'lsa, unda uchrashuvni boshlash mumkin emas.

#### **Rasmiy uchrashuvlar:**

FIFA, qit'a konfederatsiyalari yoki milliy assotsiatsiyalar tomonidan o'tkaziladigan uchrashuvlarda uchtagacha o'yinchi almashtirishga ruxsat etiladi. Agar musobaqa reglamentida ko'proq o'yinchi almashtirish mumkin bo'lsa, unda yettitagacha o'yinchi almashtirish mumkin.

#### **Boshqa uchrashuvlar:**

Boshqa uchrashuvlarda quyidagi shartlarga asosan 5 tagacha o'yinchi almashtirish mumkin:

Ikki uchrashadigan jamoa maksimal darajada o'yinchi almashtirishga kelishganda, Bosh hakam ushbu kelishuv haqida uchrashuv boshlanguniga qadar ogoh etilsagina.

Agar uchrashuv hakami kelishuv haqida o'yin boshlanguniga qadar ogohlantirilmasa yoki ikki jamoa maksimal darajada o'yinchi almashtirishga kelisha olmasa, uchrashuvda 3 tagacha o'yinchi almashtirish mumkin.

#### **Barcha uchrashuvlar uchun:**

Barcha uchrashuvlarda o'yin boshlanguniga qadar zaxira o'yinchilari ism – shariflari uchrashuv bayonnomasidagi ro'yxatga kiritilgan bo'lishi lozim. Uchrashuv bayonnomasidaga ro'yxatga kiritilmagan futbolchi o'yinda qatnasha olmaydi.

#### **O'yinchi almashtirish holati**

#### **O'yinchi almashtirish uchun quyidagilarni bajarish zarur:**

Bosh hakamni o'yinchi almashtirilishi to'g'risida ogohlantirish zarur,

Zaxiradagi o'yinchi maydonga bosh hakam ruxsati va almashayotgan o'yinchi maydonni tark etgandagina tushishi mumkin.

Zaxiradagi o'yinchi maydonga tushgandan so'ng almashtirish haqiqiy deb hisoblanadi, SHu vaqtidan boshlab zaxira o'yinchisi asosiy tarkib o'yinchisi hisoblanadi, almashtirilgan

o'yinchi esa asosiy tarkib o'yinchisi hisoblanmaydi.

Almashtirilgan o'yinchi ushbu o'yinda boshqa qatnasha olmaydi.

Hakam zaxiradagi barcha o'yinchilarga(maydonga tushgan tushmaganligining ahamiyati yo'q) bir vaqtning o'zida ogohlantirish ko'rsatishi huquqiga ega.

#### **Darvozabonni almashtirish**

**Maydondagi har qaysi o'yinchi darvozabon bilan vazifalarini almashishi mumkin, qachonki:**

Uchrashuv bosh hakami oldindan ogohlantirilgan bo'lsa,

Darvozabonni almashtirish faqat o'yin to'xtatilganda yuz berishi mumkin.

#### **Qoida buzarliklar/jarimalar**

**Zaxiradagi o'yinchi hakamning ruxsatisiz maydonga tushsa, unda:**

O'yinni to'xtatish zarur,

Bosh hakam qoidabuzarni sariq kartochka bilan ogohlantirib, o'yinchidan maydonni tark etishni talab qiladi.

O'yin to'xtatilgan joydan «baxsli to'p» orqali davom ettirilishi zarur.

**Agar maydondagi o'yinchi bosh hakamni ogohlantirmsadan darvozabon bilan almashsa, unda:**

Uchrashuvni to'xtatish zarur emas.

To'p maydonni tark etgandan so'ng qoidani buzgan o'yinchini sariq kartochka bilan ogohlantirish kerak.

**Boshqa barcha 3 – qoida buzilgan hollarda:**

Qoidani buzgan o'yinchi sariq kartochka bilan ogohlantirilishi zarur.

**O'yinni davom ettirish**

Agar o'yinni bosh hakam faqat asosiy tarkib o'yinchisini ogohlantirish uchun to'xtangan bo'lsa, unda:

O'yin raqib jamoa tomonidan erkin to'p tepish orqali uchrashuv to'xtatilgan joydan davom ettiriladi.

## **Asosiy tarkibdagi va zaxiradagi o'yinchilarni maydondan chetlatish**

O'yin boshlanishiga qadar chetlatilgan o'yinchi o'rniga uchrashuv bayonnomasida qayd etilgan zaxira o'yinchisi maydonga tushishi mumkin.

Uchrashuv bayonnomasiga kiritilgan zaxira o'yinchisi uchrashuv boshida yoki oxirida maydondan chetlatilsa, uning o'rniga bayonnomaga boshqa zaxira o'yinchisini kiritish mumkin emas.

### **Xalqaro kengash qarori**

#### **Qaror 1.**

Agar XKning nizomiga asosan «7 tadan kam o'yinchi bo'lsa, unda uchrashuvni boshlash mumkin emas» degan qoidaga amal qilinsa va 3 – qoidaning qolgan barcha shartlariga amal qilingan holda o'yindagi jamoalar futbolchilarining minimal sonini milliy assotsiat-siyalar aniqlash huquqiga ega.

#### **Qaror 2.**

O'yin davomida murabbiy yoki rasmiy shaxslar texnik maydon chegarasidan chiqmagan holda maydondagi futbolchilarga taktik ko'rsatmalar berishi mumkin.

### **4-qoida: O'yinchilar kiyimi (ekipirovka)**

#### **Xavfsizlik**

O'yinchi kiyimida o'ziga yoki birovga xavf soladigan pred-metlarni olishi yoki taqishi qat'yan man etiladi (bularga har xil yu-velir buyumlar ham kiradi).

#### **O'yinchining asosiy kiyimi:**

Futbolka yoki kuylak Short (agar shortning ichida ichki kiyim bo'lsa, bu xam shortning rangida bo'lishi zarur) Getralar

Himoya vositalari (shitki)

Oyoq kiyim

## **Himoya vositalari (shitki)**

Himoya vositasi getra bilan to‘liq berkitilgan bo‘lishi,  
Rezina, plastmassa yoki shunga o‘xhash xom-ashyodan tayyor-  
langan bo‘lishi, Yuqori darajadagi himoyani ta’minlashi kerak.

## **Darvozabon kiyimi**

Darvozabon kiyimi rangi maydondagi o‘yinchilardan, bosh ha-  
kam va bosh hakam yordamchilari kiyimi rangidan ajralib turishi  
kerak.

## **Qoida buzarliklar/jarimalar**

Har qanday 4 – qoida buzilganda:  
O‘yinni to‘xtatish shart emas,  
Bosh hakam qoidani buzgan o‘yinchiga kiyimi haqida e’tiroz  
bildirishi,

Agar qoidabuzar o‘z kiyimini to‘g‘irlab olmagan bo‘lsa, to‘p  
maydonni tark etganda u o‘z kiyimini to‘g‘irlash uchun maydonni  
tark etishi zarur,

Kiyimini to‘g‘irlab olish uchun maydonni tark etgan o‘yinch  
faqat bosh hakam ruxsat bergandan so‘nggina maydonga tushishi  
mumkin,

Maydonga qaytishdan oldin hakam o‘yinchining kiyimini ko‘zdan  
kechirishi lozim, To‘p maydondan chiqib ketgan vaqtda kiyimini  
to‘g‘irlab olish uchun maydonni tark etgan o‘yinchiga maydonga  
tushishiga ruxsat beriladi.

Agar 4 – qoidalar asosida maydondan chetlatilgan futbolchi bosh  
hakamning ruxsatisiz maydonga qaytsa, unda qoidabuzar sariq kar-  
tochka bilan ogohlantirilishi kerak.

## **O‘yinni davom ettirish**

Agar o‘yinni bosh hakam qoidabuzarni ogohlantirish uchun to‘x-  
tatgan bo‘lsa, unda: O‘yin raqib jamoa tomonidan erkin to‘p tepish  
orqali uchrashuv to‘xtatilgan joydan davom ettiriladi.

## **5-qoida: Bosh hakam**

Har bir o'yinni futbol qonun qoidalari asosida boshqarish uchun hakamlar tayinlanadi.

### **Huquq va majburiyatlar**

#### **Hakam:**

Uchrashuvda qonun-qoidalarni nazorat qilish;

Uchrashuvni yon hakamlar va 4 – hakam bilan birgalikda nazorat qilish; 2 – qoida talablariga asosan to'pni nazorat qilish;

4 – qoida talablariga asosan o'yinchilarning kiyimlarini nazorat qilish; Uchrashuvni qayd etib borish;

Har qanday qoida buzilishlarda uchrashuvni to'xtatish, uzib qo'yish yoki butunlay to'xtatish o'yindagi bosh hakam qarashiga bog'liq;

Bosh hakam uchrashuvni har qanday tashqi muhitning aralashuvida to'xtatishi yoki butunlay tugatishi mumkin;

Bosh hakam fikriga ko'ra maydondagi o'yinchi qattiq jarohat olganda yoki o'yinchilarni maydondan evakuatsiya qilish zarur bo'lganda uchrashuvni vaqtinchalik yoki butunlay to'xtatishi mumkin;

Bosh hakam fikriga ko'ra o'yinchi yengil jarohat olganda to'p maydondan chiqib ketmaguncha uchrashuv davom ettiriladi;

Har qanday o'yinchining jarohatidan qon chiqsa, ushbu o'yinchni maydon tashqarisiga chiqishini ta'minlash hamda ushbu o'yinchi maydonga qaytayotganda qon oqishi to'xtaganiga ishonch hosil qilgandan so'nggina unga ruxsat berishi;

O'yin qoidasini buzgan jamoa darvozasi tomon hujum bo'layotgan bo'lsa o'yinni to'xtashish zarur emas, hujum tugagandan so'ng yoki to'p maydondan tashqariga chiqqanda qoidabuzarni ogohlantirish zarur;

Qoidabuzar yoki ogohlantirilgan o'yinchi yana bir bor qoidani buzzsa, o'yinchi shu zahoti qattiq ogohlantirilish bilan jazolanishi kerak;

Agar uchrashuvda qoida buzilsa, hakam to'p maydonni tark etgandan so'ng qoidabuzarni albatta ogohlantirishi zarur;

Jamoalardagi o‘zini tuta olmayotgan rasmiy vakillarga nisbatan maydondan, zaxira o‘rindig‘idan chetlatishi yoki ularga jazo qo‘llashi mumkin;

Bosh hakam yo‘l qo‘yilgan qoidabuzarlikni ko‘rmay qolgan vaziyatlarda uning yordamchisi yetkazgan ma’lumotlar asosida jazo qo‘llashi mumkin;

Maydonga futbolchilardan boshqalarni tushirmaslikni nazorat qilish; O‘yin to‘xtatilganda davom ettirish;

O‘yin bayonnomasi (bayonnomaga uchrashuv atrofida, uchrashuv boshlanishiga qadar, uchrashuv davomida, uchrashuvdan so‘ng bo‘lib o‘tgan barcha voqealarni yozma ravishda)ni to‘ldirish va uchrashuv tashkilotchilariga taqdim etish zarur.

### Hakam qarori

Har qanday o‘yin holatida faqat bosh hakam yakuniy qaror chiqara oladi.

Agar hakam yordamchilari bilan maslaxatlashib noto‘g‘ri qaror qabul qilganini tan olsa, unda faqat o‘yin to‘xtatilgan vaziyatda o‘z qarorini o‘zgartirishi mumkin.

### Xalqaro kengash qarori

#### Qaror 1

Hakam(shu bilan birga, vaziyatga qarab hakam yordamchilari yoki to‘rtinchchi hakam) quyidagi holatlarda javobgarlikdan soqit qilinadi:

Jamoa futbolchilari, rasmiy vakillar yoki muxlistlar tomonidan olingan har qanday jarohatlardan;

Har kimning mulkiga zarar yetishidan;

Hakam tomonidan o‘yin doirasida qabul qilingan har qanday qaror natijasida xususiy shaxslar, klub, kompaniya, assotsiatsiya yoki boshqa tashkilotlarda yuzaga kelgan boshqa yo‘qotishlardagi javobgarliklardan.

Hakam quyidagi holatlarda javobgar:

Maydon va unga qo‘srimcha asbob – uskunalar borasidagi hakam qarori, ob – havo sharoiti o‘yin o‘tkazishga to‘sqinlik qilish

– qilmasligi;

Ob – havo sharoitidan kelib chiqib o‘yinni bekor qilishda;

Maydonga qo‘sishimcha asbob – uskunalarining yaroqsizligi borasidagi hakam qarori, jumladan, darvoza ustunlari va to‘sinlari, burchak bayroqlari shuningdek, to‘plar talabga javob bermasa;

Muxlislarning maydonga tushib ketganda yoki muxlislar bilan bog‘liq vaziyatlardagi o‘yinni to‘xtatish yoki to‘xtatmaslik borasidagi hakam qarori;

Futbolchi jarohat olgan vaqtida tibbiy yordam ko‘rsatish uchun o‘yinni to‘xtatish yoki to‘xtatmaslik borasidagi hakam qarori;

Futbolchi jarohat olgan vaqtida tibbiy yordam ko‘rsatish uchun uni maydondan tashqariga olib chiqish yoki chiqmasligi borasidagi hakam qarori;

Futbolchining o‘zida yoki libosida ba‘zi predmetlarni osishga ruxsat berish yoki ruxsat bermaslik borasidagi hakam qarori;

Ba‘zi shaxslarni, jumladan, jamoa rahbarlarini, maydon ishchilarini, qo‘riqlash xizmati xodimlarini, fotomuxbirlarni yoki boshqa Ommaviy axborot vositalari vakillarini maydonning yaqiniga yo‘latish yoki yo‘latmaslik borasidagi hakam qarori;

Qolgan barcha qarorlarda, ya’ni futbol qoidalariiga yoki o‘zining vazifasi doirasi asosida, FIFA nizomlariga, qit’a konfederatsiya milliy assotsiatsiyalar va proffesional liga reglamentlariga asosan qabul qilingan qarorlarda hakam javobgardir.

### **Qaror 2**

Agar Musobaqa yoki turnirning har bir o‘yiniga to‘rtinchchi hakam tayinlansa, unda uning huquq va majburiyatlari Halqaro kengash tomonidan tasdiqlangan instruksiyaga mos kelishi lozim.

### **Qaror 3**

O‘yin bilan bog‘liq bo‘lgan faktlar, ya’ni to‘p darvozaga kiritilganmi yoki yo‘qmi va o‘yin natijasi.

## **6-qoida: Bosh hakam yordamchilari majburiyatları**

Har bir uchrashuvga bosh hakamga ikkita yordamchi tayinlanadi va ular bosh hakamga quyidagi (bosh hakam bilan kelishgan holda) hollarda o'z bayroqchasin ko'targan holda signal beradi: To'p maydonni to'liq tark etganda;

To'pni qaysi jamoa o'yinga kiritishi, burchakdan to'p tepishi, yon chiziqdandan to'pni o'yinga kiritishi;


Jamoa o'yinchisi o'yindan tashqari holatda bo'lganda; O'yinchi almashtirish zarur bo'lganda;

Bosh hakam ko'rmagan vaqtida o'yin qoidasi buzilgan vaziyatlarda yordam beradi.

## **Yordamchilarning bosh hakamga yordamlari**

Uchrashuvni o'yin qoidalari asosida o'tishi uchun yordamchilar bosh hakamga yordam berishi zarur.

Agar hakam uning ishiga aralishishi yoki o'zini no'maqul tutsa, yordamchi hakamlikdan bosh tortishi mumkin va maxsus raportni uchrashuv tashkilotchilariga taqdim etishi shart



**29-rasm**

## **7-qoida: Uchrashuvning davom etishi**

Agar baxslashayotgan jamoalar o'yining davomiylik vaqtini kelishib olmagan bo'lalar, har bir o'yin 45 daqiqadan ikki bo'lim davom etishi zarur. O'yin bo'limlari vaqtini (masalan, 40 daqiqadan, qorong'u tushib qolgan vaziyatlarda) o'zgartirishga kelishib olish, o'yin boshlanguncha amalga oshirilishi kerak. Bunday kelishuvlar

faqat musobaqa reglamentida begilangan holatlardagina yuz berishi mumkin.

### **Bo'limlar orasidagi tanaffus**

O'yinchilar bo'limlar orasida tanaffusga chiqish xuquqiga ega.

Bo'limlar orasidagi tanaffus 15 minutdan ko'p bo'limasligi zarur.

Bo'limlar orasidagi tanaffus musobaqa reglamentida belgilangan bo'lishi zarur.

Bo'limlar orasidagi tanaffus vaqtini faqatgina hakam bilan kelingan holda o'zgartirish mumkin.

### **Yo'qotilgan vaqtlar uchun qo'shimcha vaqt**

Har bir bo'limga quyidagi hollarda yo'qotilgan vaqtlargaga qo'shimcha vaqt qo'shish mumkin: O'yinchilar almashtirilganda; O'yinchi jiddiy jaroxat olgandagi vaqt uchun;

Jaroxat olgan o'yinchini maydon tashqarisiga tibbiy yordam ko'rsatish uchun olib chiqqan vaqt uchun; O'yin vaqtini ataylab cho'zganda va boshqa sabablar uchun.

Yukotilgan vaqtga qo'shimcha vaqtini faqat bosh hakam qo'shishi mumkin.

### **11-metrli jarima to'pi**

Bo'limning so'nggi daqiqalarida yoki qo'shimcha vaqtning oxirda belgilangan 11 metrli jarima to'pini bajarish uchun vaqt berilishi shart.

### **Qo'shimcha bo'limlar**

Musobaqa reglamentiga ko'ra kerakli vaziyatlarda qo'shimcha yana 2 ta bo'lim o'tkazilishi mumkin. Ushbu bo'limlarda 8-Qoidaga rioya qilgan holda o'tkazish ko'zda tutilgan.

## To'xtatilgan uchrashuv

To'xtaligan uchrashuv qaytadan to'liq o'tkaziladi, agar musobaqa reglamentida boshqacha qaror qabul qilinmagan bo'lsa.

### 8-qoida: Uchrashuv boshlanishi va o'yinni davom ettirish

#### Uchrashuv boshlanish arafasida

Har bir uchrashuv boshlanish arafasida ikki jamoa sardorlari orasida tanga orqali qur'a tashalanadi va qur'ada g'olib chiqqan sardor jamoa uchun (birinchi bo'limda) darvoza tanlash huquqini qo'lga kiritadi.

Raqib jamoa esa o'yinni boshlab beradi.

Qur'ada g'olib chiqqan jamoa esa ikkinchi bo'limni boshlab beradi.

Ikkinchi bo'limda jamoalar o'z darvozalarini almashtirishadilar.

#### Boshlang'ich zarba

Boshlang'ichi zarba uchrashuv boshlanganlik yoki uni davom etirishni anglatib, u quyidagi hollarda yuz beradi:

Uchrashuv boshlanishida, Har bir urilgan goldan so'ng, Ikkinchi bo'lim boshlanishida, Agar qo'shimcha bo'limlar belgilangan bo'lsa, ushbu qo'shimcha bo'limlarning boshlanishida.

Boshlang'ich zarba orqali bevosita to'pni darvozaga kiritish mumkin.

**Boshlang'ich zarbani amalga oshirish tartibi:** ikkala jamoa ham o'zlarining yarim maydonida turishlari shart, boshlang'ich zarbani amalga oshirmayotgan jamoa o'yinchilari boshlang'ich zarba amalga oshmaguncha to'pdan 9,15m radius masofada uzoqlikda turishlari shart, to'p maydon markazida harakatsiz holda turishi kerak.

boshlang'ich zarba hakamning hushtagidan so'ng o'yinga kiritiladi, oyoq bilan to'pga zarba berilgandan so'ng to'p joyidan surilsa, to'p o'yinga kiritilgan deb hisoblanadi, boshlang'ich zarbani bergen o'yinchi to'pga boshqa jamoadoshi kelib tegmaguncha yana zarba

berishi mumkin emas.

To'p darvozaga kiritilgandan so'ng, to'p o'tkazib yuborgan jamoa boshlang'ich zarbani amalga oshiradi.

### **Qoida buzarliklar/jarimalar**

Agar boshlang'ich zarbani bergan o'yinchi to'pga boshqa jammadoshi kelib tekkunga qadar yana zarba bersa, unda: O'yin raqib jamoa tomonidan erkin to'p tepish orqali qoida (ikkinchi zarba berilgan) buzilgan joydan davom ettiriladi.

Bundan boshqa barcha vaziyatlarda, boshlang'ich zarba qayta tepiladi:

Boshlang'ich zarba qaytariladi.

### **«Baxsli to'p»**



**30-rasm**

«O'yin qoidalari»da ko'rsatilmagan hollar qoida buzilsa va uchrashuv vaqtinchalik to'xtatilsa, uchrashuvni «baxsli to'p» orqali davom ettirish kerak.

#### **«Baxsli to'p» quyidagicha amalga oshiriladi:**

Bosh hakam to'p tashab bergan holda uchrashuv to'xtatilgan joydan «baxsli to'p»ni amalga oshiradi

To'p erga tegishi bilan o'yin qayta boshlandi deb hisoblanadi.

#### **Qoida buzarliklar, jarimalar**

To'p quyidagi xollarda qayta tashlanadi:

Agar biror jamoa o'yinchisi to'p erga tushmasdan to'pga teginsa,

To'p erga tushgandan so'ng, hech kimga tegmay maydon tashqarisiga chiqib ketsa.

### **Eng muxim jihatlar quyidagicha:**

Erkin yoki jarima to‘pi ximoyalanayotgan jamoa foydasiga o‘zining jarima maydoni ichida yuz bersa, o‘yinni jarima maydonining hohlagan nuqtasidan davom ettirish mumkin.

Agar erkin to‘p hujum qilayotgan jamoaning foydasiga raqib darvozasi maydoni ichida ro‘y bersa, o‘yinni qoida buzilgan joyga eng yaqin darvoza maydoni chizig‘idan o‘yinga kiritish zarur.

Agar «baxsli to‘p» ximoyalanayotgan jamoaning darvoza maydoni ichida tasodifiy sabab tufayli buzilsa, o‘yinni qoida buzilgan joyga eng yaqin darvoza maydoni chizig‘idan to‘p qaytadan tashlanadi.

### **9-qoida: To‘p o‘yinda va o‘yindan tashqari holatlarda**


To‘pning o‘yindan tashqari holatda bo‘lishi

To‘p quyidagi holatlarda o‘yin holatida bo‘ladi:

To‘p maydon chizig‘ini yerda yoki xavoda to‘liq kesib o‘tsa; Bosh hakam hushtagini chalib o‘yinni to‘xtanganda.

### **To‘pning o‘yinda bo‘lishi**

Yuqoridagi holatlardan tashqari barcha vaziyatlarda to‘p o‘yindan tashqari holatda bo‘ladi: Darvoza ustuni, to‘sini yoki maydon burchagidagi bayroqqa tegib maydonga qaytsa; Bosh hakamga yoki uning yordamchilariga tegib maydonda qolsa.



**31-rasm**

## **10-qoida: To‘p darvoza to‘ridaligini aniqlash usullari**

### **To‘p darvoza to‘rida**

To‘p darvoza chizig‘ini, to‘sini osti va ustunlar orasini to‘liq kesib o‘tsa va to‘p kiritgan jamoa o‘yinchilari to‘p kiritilgunga qadar hech qanday qoidani buzmagan hollarda to‘p darvoza to‘rida deb hisoblanadi.

### **G‘olib jamoa**

Uchrashuv davomida ko‘proq to‘p kiritgan jamoa g‘olib jamoa deb topiladi. Agar ikkala jamoa ham o‘yin davomida bir xil to‘p kirlitsa yoki umuman to‘p kirlita olmasa o‘yin durang deb hisoblanadi.

### **Musobaqa reglamenti**

Keyingi bosqichga bitta jamoa yo‘l olishi kerak bo‘lsa-yu, lekin uchrashuv durang bilan yakunlansa, unda Halqaro kengash tomonidan tasdiqlangan musobaqa reglamentiga ko‘ra qo‘srimcha bo‘limlar yoki boshqa choralar ko‘rilishi kerak.

## **11-qoida: «O‘yindan tashqari» holat**

### **«O‘yindan tashqari» holatni aniqlash**

O‘yinchining «o‘yindan tashqari» holatda qolishi o‘yin qoidalari buzilishidir.

#### **O‘yinchi «o‘yindan tashqari» holatda deb topiladi, agar:**

O‘yinchi raqib darvoza chizig‘iga raqibning so‘nggi o‘yinchisidan yaqinroq holatda tursa, unda ushbu o‘yinchi o‘yindan tashqari holatda deb hisoblanadi.

#### **O‘yinchi «o‘yindan tashqari» holatga tushmaydi, agar:**

O‘z jamoasining yarimmaydonida bo‘lsa. Raqib jamoasining so‘nggi o‘yinchisi bilan bir xil darajada bo‘lsa,

Raqib jamoasining so‘nggi va so‘nggisidan bitta oldin turgan o‘yinchisi bilan bir xil darajada bo‘lsa.

## **Qoidabuzarlik**



**32-rasm**

### **Qoidabuzarlik yo‘q**

«o‘yindan tashqari» holatda qolgan o‘yinchini jazolash kuzatilmaydi, agar u bevosita to‘pni quyidagi holatlarda qabul qilib olsa:

Darvozadan erkin to‘p tepilgandan so‘ng,  
Yon chiziqdandan tashab berilganda,  
Burchak to‘pi tepilganda.

### **Qoida buzarlik va jarimalar**

Har bir «o‘yindan tashqari» holat bilan bog‘liq qoidabuzarlikda hakam qoida buzilgan nuqtadan raqib jamoa foydasiga erkin zarba belgilashi kerak.

### **12-qoida: Qoida buzilish holatlari va qoidaga zid xatti-harakatlar**

O‘yinchilar tomonidan qo‘llangan qoidaga zid va tartibsiz harakatlar quyidagicha jazolanadi:

### **Jarima to‘pi**

Uchrashuv hakamining fikriga ko‘ra, o‘yinchi raqibiga nisbatan qo‘pol va xavfli tarzda o‘ynab, quyidagi 6 holatlardan birini qo‘llagan vaziyatlarda raqib jamoa foydasiga jarima to‘pi belgilanadi: raqib o‘yinchiga oyog‘i bilan zarba berish yoki bunga harakat qilsa; raqib o‘yinchini chalib yiqitsa yoki bunga harakat

qilsa; raqib o'yinchi ustiga sakrab chiqib olsa; raqib o'yinchiga nisbatan xavfli hujum uyuştirsa; raqib o'yinchiga qo'li bilan zarba bersa yoki bunga harakat qilsa; raqib o'yinchini qo'pol tarzda turtib muvozanatdan chiqarib yuborsa.

**Shuningdek, o'yinchi quyidagi 4 qoidabuzarlik holatidan biriga yo'l qo'yan holatlarda raqib jamoa foydasiga jarima to'pi belgilanadi:**

To'p uchun ko'rasha turib, oldin raqib o'yinchisi oyog'iga tegib, keyin to'pga o'ynasa; raqib o'yinchini qo'llari yoki tanasi bilan ushlab qolsa; raqib o'yinchiga qarata tupursa yoki bunga harakat qilsa;

To'pni atayin qo'li bilan o'ynasa(darvazabonlar o'z jarima maydonchasi ichida qo'llari bilan o'ynashlari mumkin).

**Jarima to'pi maydonning o'yin qoidasi buzilgan joyidan amalga oshiriladi.**

### **11-metrali jarima to'pi**

Agar o'yinchi, to'p qaerda ekanligidan qat'iy nazar (faqt o'yin holatida bo'lishi kerak) o'z jarima maydonchasi ichida yuqorida ko'rsatib o'tilgan qoida buzilishlarning istalgan biriga yo'l qo'ysa, raqib jamoa foydasiga 11-metralik jarima to'pi belgilanadi.

### **Erkin zarba**

**Agar darvozabon o'z jarima maydonchasi ichida turgan holda quyidagi 4 qoida buzilishi hollarining biriga yo'l qo'ysa, raqib jamoa foydasiga erkin zarba belgilanadi:** To'pni qo'lidan chiqarib, hali to'pga xech kim teginmasdan turib yana to'pni qo'liga olsa; o'z jamoadoshi tomonidan atayin etkazib berilgan to'pni qo'llari bilan tegsa yoki egallab olsa; o'z jamoadoshi tomonidan bevosita yon chiziqdan etkazib berilgan to'pni qo'llari bilan tegsa yoki egallab olsa; o'yinni cho'zishga qaratilgan taktik xatti-harakatlarni amalga oshirsa.

**Shunindek, uchrashuv xakamining fikriga ko'ra, o'yinchi quyidagi qoida buzilishi holatlarining sodir bo'lishida aybdor deb topilsa, raqib jamoa foydasiga erkin zarba belgilanadi:** raqib o'yinchisiga nisbatan xavfli o'ynasa; raqib o'yinchisining harakatla-

nishiga xalaqit qilsa; raqib jamoa darvozabonining to‘pni qo‘li bilan o‘yinga kiritishiga xalaqit qilsa; 12-qoidada ko‘rsatib o‘tilmagan boshqa qoida buzilish holatlari qayd etilganda, uchrashuv hakami o‘yinchini ogoxlantirish (sariq kartochka) yoki o‘yindan chetlashtirish (qizil kartochka) maqsadida o‘yinni to‘xtatsa.

**Erkin zarba maydonning qoida buzilgan joyidan o‘yinga kiritiladi.**

### **Intizomiy jazolar**

#### **Ogohlantirish ko‘rsatish bilan jazolanuvchi qoida buzilish holatlari**

Agar o‘yinchi quyidagi 7 qoida buzilish holatlarining birini sodir etsa, hakam tomonidan sariq kartochka ko‘rsatish orqali ogohlantiriladi: sport qoidalariغا xilof ravishda harakat qilsa; so‘zları yoki harakatlari orqali hakamning qaroriga norozilik bildirsa; o‘yin Qoidalarni doimiy ravishda buzsa; sun‘iy ravishda o‘yinni davom etishiga halaqit qilsa; burchak, jarima to‘pi yoki erkin zarba amalga oshirilayotgan paytda masosaviy joylashishni bussa; hakamning ruxsatisiz maydonga chiqsa yoki maydonga qaytsa; hakamni ruxsatisiz ongli ravishda maydonni tark etsa.

#### **Maydondan chetlatish bilan jazolanuvchi qoida buzilish holatlari**

Agar o‘yinchi quyidagi 7 qoida buzilish holatlarining birini sodir etsa, hakam tomonidan qizil kartochka ko‘rsatish orqali ogohlantiriladi: o‘ta qo‘pol va xavfli harakatni amalga oshirsa; o‘zini juda betartib holda tutsa; raqib o‘yinchisi yoxud boshqa kim-saga nisbatan tupursa; to‘pni atayin qo‘li bilan ushlab qolish orqali raqib jamoa o‘yinchilarining to‘pni darvozaga kiritishiga xalaqit qilsa (darvozabon o‘z jarima maydonchasi ichida to‘pni qo‘li bilan o‘ynashi bundan mustasno); erkin zarba, jarima to‘pi yoki 11-metrlig jarima to‘pi belgilash bilan jazolanuvchi qoida buzilishi holatini sodir etgan holda zarba berish holatiga chiqayotgan raqib o‘yinchisini to‘xtatib qolsa; xaqratli, odobsiz so‘z va iboralarни ishlatsa; bir o‘yinda ikki marta sariq kartochka bilan ogoxlantirilsa.

## Xalqaro kengash qarori

### Qaror 1

Agar darvozabon o‘z jarima maydonchasi ichida qo‘lidagi o‘yin holatidan chiqmagan to‘p bilan raqib jamoa o‘yinchisiga zarba bersa yoki bunga harakat qilsa, uchrashuv xakami 11-metrlik jarima to‘pi belgilashi kerak.

### Qaror 2

Ogohlantirish yoki maydondan chetlatish bilan jazolanuvchi qoidabuzarlikka yo‘l qo‘ygan o‘yinchi, qoidani qayerda (maydonda yoki maydon tashqarisida) va kimga nisbatan (raqib o‘yinchiga, jamoadoshiga, bosh hakamga, yordamchi hakamlarga yoki boshqa shaxsga) nisbatan buzganligidan qat‘iy nazar, o‘yin qoidalariga binnoan jazolanishi kerak.

### Qaror 3

Darvozabon to‘pni egallab oldi deb hisoblash uchun, u to‘pga qo‘lining istalgan qismi bilan to‘pga tegib turgan vaziyatda bo‘lishi kerak. Bundan tashqari, darvozabon o‘zi tomon harakatlanayotgan to‘pni oyoqlari bilan qisib olgan holatda ham to‘pni darvozabon egallab oldi deb hisoblanadi. Lekin, xakamning fikriga ko‘ra, to‘p tasodifan darvozaboning qo‘llaridan chiqib ketsa, masalan darvoza tomon yo‘naltirilgan zarbani qaytarishda darvozabon to‘pni qo‘llarida ushlab qola bilmasa, darvozabon to‘pni egallab oldi deb hisoblanmaydi.

Darvozabon to‘pni 15-16 sekunddan uzoq vaqt davomida qo‘llarida yoki tanasiga qisgan holda ushlab tursa, o‘yin vaqtini cho‘zganlikda ayblanadi.

### Qaror 4

— Qoidaning ko‘rsatmalariga binoan o‘yinchi to‘pni boshi, ko‘kragi, tizzasi va x.k. orqali o‘z darvozaboniga etkazib berishi mumkin. Biroq, hakamning fikriga ko‘ra, agar o‘yinchi o‘yin paytida ongli ravishda 12 – Qoidada belgilab qo‘yilgan cheklavlarni oshib o‘tishga harakat qilsa, u sport qoidalariga xilof ravishda harakat qilganlikda ayblanadi. Bunday xollarda o‘yinchi sariq kartochka ko‘rsatish

orqali ogoxlantirilib, raqib jamoa foydasiga o‘yin Qoidasi buzilgan joydan erkin zarba belgilanadi.

Jarima yoki erkin zARBAni amalga oshirish vaqtida 12-qoidaga asosan cheklashlarni aylanib o‘tish maqsadida akrobatik harakatlar amalga oshirilsa, o‘yinchI hakam tomonidan sariq kartochka bilan ogohlantirishi va zarba qaytatdan ijro etilishi lozim.

Yuqorida ko‘rsatilgan holatda keyinchalik darvozabonning to‘pgA tegish yoki tegmasligi axamiyat kasb etmaydi. Chunki bunday holarda o‘yin Qoidasini darvozabon emas, balki o‘yinchI buzgani deb topiladi, ya’ni u 12 – Qoidaga rIoya kilmaganlikda ayblanadi.

### **Qaror 5**

To‘pni orqadan raqib o‘yinchiga jaroxat etkazish xavfi bilan egal-lab olish uchun harakat qilish qo‘pol qoida buzilishi sifatida jazolaniShi kerak.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan 5 – Qarorda, bunday qoida buzilishga yo‘l qo‘ygan o‘yinchI 12 – Qoidaning 1-bandi, ya’ni «Maydondan chetlatish» bandiga asosan maydondan chetlatilishi (qizil kartochka) kerakligini anglatadi.

### **13-qoida: Jarima to‘pi va erkin zarba**

Rus va o‘zbek tillaridan boshqa barcha tillarda ushbu zARBalar erkin (free kick), jarima zARBasi esa — to‘g‘ri erkin zarba (direct free kick), erkin zarba esa — to‘g‘ri bo‘limgan erkin zarba (indirect free kick) deb ataladi. Penalti (penalty-kick)

11 metrdan beriladigan jarima zARBasiga nisbatan ishlataladi.

**Maydonning turli nuqtalaridan beriladigan zARBalar turlari** Maydonning u yoki bu nuqtasidan ijro etiladigan zarba erkin yoki jarima zARBasi bo‘lishi mumkin.

**Erkin yoxud jarima zARBasi ijro etilayotganda to‘p harakatsiz holda bo‘lishi shart.** Zarba ijro etuvchi futbolchi to‘p boshqa bir futbolchining oyog‘iga tekkandan so‘nggina to‘pni tepishi mumkin.

## **Jarima zarbasi**



**34-rasm**

Agar jarima zarbasi ijro etilganidan so'ng to'p futbolchilardan hech biriga tegmasdan raqib darvozasi to'riga borib tushsa, "darvoza ishg'ol etilgan", deb hisoblanadi.

Agar jarima zARBASIDAN so'ng to'p futbolchilardan hech kimga tegmay, o'z darvozasiga borib tushsa, raqib komanda foydasiga burchak to'pi belgilanadi. (ya'ni, AVTOGOL hisoblanmaydi!)

## **Erkin zarba**

### **Majburiy ishora**

Erkin zarba berilishi oldidan hakam qo'lini boshi uzra ko'tarib, zarba berilgach, to'p o'yinchilardan biriga tekkuncha, yoki maydonni tark etguncha qo'lini tushirmaydi.

### **To'p darvozaga borib tushdi**

Erkin zarba yo'llangandan keyin faqatgina to'p o'yinchilar dan biriga tegib, darvozaga borib tushgan holdagini gol ino batga olinadi.

Agar erkin zarbadan so'ng, to'p hech kimga tegmasdan raqib darvozasi to'riga borib tushsa, gol hisoblanmaydi va to'p darvoza maydonchasidan o'yinga kiritiladi.

Agar erkin zarba ijro etilgandan so'ng to'p hech bir o'yinchiga tegmasdan, o'z darvozasi to'riga borib tushsa, raqib komanda foy-

dasiga burchak to'pi beligilanadi.

**Maydonning turli nuqtalaridan zarba ijro etish**

**Jarima maydoni ichidan jarima yoki erkin zarba ijro etish**

**Erkin yoki jarima zarbasi ijro etilayotganda himoyalananayotgan jamoa o'yinchilari:** to'pdan kamida 9,15 m masofada turishadi; to'p o'yinga kiritilgunga qadar, raqib jamoa o'yinchilari jarima maydoni tashqarisida turishi kerak;

To'pga oyoq bilan zarba berilgach, hech bir o'yinchiga tegmasdan jarima maydonini tark etgan lahzadan boshlab, to'p o'yinga kiritilgan deb hisoblanadi; darvoza maydonchasi ichida qayd etilgan qoida buzilishi uchun belgilangan erkin yoki jarima zarbasi bu maydonchaning istalgan nuqtasidan amalga oshiriladi.

Hujum qilayotgan jamoa tomonidan erkin zarba ijro etilganda:

raqib jamoa o'yinchilarining barchasi to'p o'yinga kiritilganga qadar, to'pdan kamida 9,15 m masofda turishi kerak, bunda ular o'z jamoasi darvozasi ustunlari orasida — darvoza chiziqlari ustida turishiga ham ruxsat etiladi; to'pga oyoq tegib joyidan siljishi bilan, to'p o'yinga kiritilgan deb hisoblanadi; Darvoza maydonchasi ichida qayd etilgan qoida buzilishi uchun belgilangan erkin zarba, darvoza maydonchasini belgilab beruvchi, darvoza chizig'iga parallel chiziq ustidan, qoida buzilgan joyga maksimal yaqin nuqtadan ijro etiladi.

### **Jarima maydoni tashqarisidan erkin yoki jarima zarbasi ijro etish**

Raqib jamoaning barcha o'yinchilari to'p o'yinga kiritilganga qadar, undan kamida 9,15 m masofda turishadi; to'pga oyoq tegib joyidan siljilishi bilan, o'yinga kiritilgan hisoblanadi; erkin yoki jarima zarbasi qoida buzilgan nuqtadan ijro etiladi.

### **Qoida buzilishi va jazolar**

Agar erkin yoki jarima zarbasi ijro etilishidan avval raqib jamoa o'yinchilaridan biri to'pgacha belgilangan masofadan yaqinroq joylashgan bo'lsa: zarba qayta ijro etiladi.

Agar himoyalananayotgan jamoa o'yinchisi o'z jarima maydonchasi ichidan erkin yoki jarima zarbasi ijro etganda to'p o'yinga

kirmasa:

zarba qayta ijro etiladi.

**Maydondagi o'yinchi tomonidan erkin yoki jarima zarbasi ijro etilishi**

To'p o'yinga kiritilgach, erkin yoki jarima zarbasini ijro etgan o'yinchi to'p boshqa o'iynchiga etib bormasdan yana to'pga tegsa (faqat qo'li bilan emas):

raqib jamoa foydasiga qoida buzilgan joydan erkin zarba berishi belgilanadi (to'pga ikki marta tegish).

**Agar to'p o'yinga kiritilgandan so'ng erkin yoki jarima zarbasini ijro etgan o'yinchi to'p o'iynchilardan biriga borib tegmasdan avval to'pni qo'li bilan qasddan ushlasa:** Qoida buzilgan joydan raqib jamoa foydasiga jarima zarbasi belgilanadi; Agar qoida buzilishi zarbani ijro etgan o'yinchi jarima maydoni ichida yuz bergen bo'lса, 11-metrlik jarima to'pi belgilanadi.

**Darvozabon tomonidan ijro etilgan erkin yoki jarima zarbasi**

**Agar to'p o'yinga kiritilgandan so'ng erkin yoki jarima zarbasini amalga oshirib bergen darvozabon to'p o'iynchilardan biriga borib tegmasdan o'zi ikkinchi bor to'pga tegsa (qo'li bilan emas):** raqib jamoa foydasiga qoida buzilgan joydan erkin zarba belgilanadi (to'pga ikki marta tegish).

**Agar to'p o'yin o'yinga kiritilgandan so'ng erkin yoki jarima zarbasini ijro etgan darvozabon to'p o'iynchilardan biriga borib tushmasdan avval to'pni qo'li bilan qasddan ushlasa:** agar qoida buzilishi jarima maydoni tashqarisida yuz bersa, qoida buzilgan joydan raqib jamoa foydasiga jarima to'pi belgilanadi; agar qoida buzilishi darvozabon jarima maydoni ichida yuz bergen bo'lса, qoida buzilgan joydan raqib jamoa foydasiga erkin

#### **14-qoida: 11-metrlik jarima to'pi**

O'z jarima maydonchasi ichida 10 xil qoida buzilish holatlariidan biriga yo'l qo'ygan o'yinchi jamoasi, qoida buzgan jamoa darvoza-si tomon 11-metrli jarima to'pi bilan jazolanadi. Bunda to'p o'yin holatida bo'llishi kerak.

To'p bevosita 11-metrlik jarima to'pidan kiritilsa, gol hisoblanadi.

Taym yoki qo'shimcha vaqt so'nggida 11-metrlik jarima to'pi belgilansa, uchrashuvga ushbu jarima to'pi amalga oshirilishi uchun qo'shimcha vaqt qo'shilishi kerak.

**To'pning o'rnatilishi va o'yinchilarining joylashishi**

**To'p:** 11-metrlik nuqtaga o'rnatiladi.

**11-metrlik jarima to'pini amalga oshiruvchi o'yinchi:** sezilarli darajada aniqlangan bo'lishi va ajralib turishi kerak.

**Ximoyalanayotgan jamoa darvozaboni:** zarba berilgunga qadar darvoza to'sinlari orasidagi chiziq ustida zarba beradigan raqibiga yuzma-yuz holatda turishi kerak.

**Jarima to'pini amalga oshiruvchi va himoyalanayotgan jamoa darvozabonidan tashqari qolgan barcha o'yinchilar:** maydonda; himoyalanayotgan jamoa jarima maydonchasi tashqarisida; 11-metrlik jarima nuqtasi orqasida; 11-metrlik jarima nuqtasidan 9,15 metrдан kam bo'limgan masofada joylashishlari kerak.

#### **Xakam**

Barcha o'yinchilar 14-Qoidada ko'tsatilgan tartibda joylashmunga qadar 11-metrlik jarima to'pini amalga oshirish uchun xush-tak chalinmasligi kerak.

11-metrlik jarima to'pi amalga oshirilishi yakunlanganligi to'g'risida qaror qabul qilishi kerak.

**Jarima to'pini amalga oshirish tartibi va yo'l-yo'riqlari:** o'yinchi, jarima to'pini amalga oshirishda to'pni saqt oldinga yo'naltirishi kerak; zarba bergandan so'ng, to'pga boshqa o'yinchi tegmasdan turib, ikkinchi marta tegishga xaqqi yo'k; oyoq bilan zarba berilgandan so'ng to'p nuqtadan oldinga qarab siljisa, to'p o'yinga kirgan deb hisoblanadi.

11-metrlik jarima to'pi amalga oshirilgandan so'ng, uchrashuvning asosiy vaqt yoki jarima to'pini amalga oshirish uchun qo'shib berilgan vaqt davomida to'p darvoza to'sinlari orasidagi va darvoza ustuni ostidagi chiziqni to'liq kesib o'tsa, gol hisobga olinadi: to'p bir yoki bir necha marta darvoza to'sinlari, ustuni yoki darvozabonga tegib darvoza chizig'ini to'liq kesib o'tadi.

#### **Qoida buzarliklar va jazolar**

Agar uchrashuv xakami 11-metrlik jarima to'pi belgilasa va to'p o'yinga kiritilgunga qadar quyidagi vaziyatlardan biri sodir etilgan-

da qabul qilinishi kerak bo`lgan qarorlar:

**11-metrlik jarima to`pini amalga oshiruvchi o`yinchi o`yin Qoidasini buzsa:** hakam jarima to`pi amalga oshirilishi natijasini kutib turadi; agar to`p darvozaga kiritilsa, zarba qaytadan amalga oshiriladi; agar to`p darvozaga kiritilmasa, zarba qayta amalga oshirilmaydi.

**Himoyalanayotgan jamoa darvozaboni o`yin Qoidasini buzsa:** hakam jarima to`pi amalga oshirilishi natijasini kutib turadi; agar to`p darvozaga kiritilsa, gol hisobga olinadi; agar to`p darvozaga kiritilmasa, zarba qaytadan amalga oshiriladi.

**Zarba beruvchi o`yinchining jamoadoshi jarima maydonchasi ichiga kirib olsa yoki darvoza chizig`iga 11 metr dan yaqinroq yoki 11-metrlik nuqtaga 9,15 metr dan yaqinroq masofaga joylashib olsa:** hakam jarima to`pi tepilishiga ruxsat beradi; agar to`p darvozaga kiritilsa, zarba qaytadan amalga oshiriladi; agar to`p darvozaga kiritilmasa, zarba qayta amalga oshirilmaydi.

Agar to`p darvozabon, darvoza ustuni yoki to`sinqulariga tegib maydonga qaytsa va ushbu o`yinchi to`pga tegsa, hakam o`yinni to`xtatadi va himoyalanayotgan jamoa foydasiga erkin zarba belgilaydi.

**Ximoyalanayotgan jamoa darvozaboni jamoadoshi jarima maydonchasi ichiga kirib olsa yoki darvoza chizig`iga 11 metr dan yaqinroq yoki 11-metrlik nuqtaga 9,15 metr dan yaqinroq masofaga joylashib olsa:** hakam jarima to`pi tepilishiga ruxsat beradi; agar to`p darvozaga kiritilsa, gol hisobga olinadi;

Agar to`p darvozaga kiritilmasa, zarba qaytadan amalga oshiriladi.

**Ikkala jamoa o`yinchilari ham bir vaqtida o`yin Qoidasini buzsa:** zarba qaytadan amalga oshiriladi.

Agar, 11-metrlik jarima to`pi amalga oshirilgandan so`ng:

Jarima to`pini amalga oshirgan o`yinchi to`pga boshqa o`yinchi teginmasdan turib, ikkinchi marta tegsa(faqat qo`li bilan emas):

o`yin Qoidasi buzilgan joydan himoyalanayotgan jamoa foydasiga erkin zarba belgilanishi kerak(to`pga ikkinchi bor tegingani sabali).

Jarima to`pini amalga oshirgan o`yinchi to`pga boshqa o`yinchi teginmasdan turib, atayin to`pni qo`li bilan o`ynasa:

o'yin Qoidasi buzilgan joydan himoyalanayotgan jamoa soydasiga jarima to'pi belgilanishi kerak.

**11-metrlik jarima to'pi amalga oshirilib, darvoza tomon yunaltirilgan to'p begona shaxsga tegsa:**

zarba qaytadan amalga oshiriladi.

**11-metrlik jarima to'pi amalga oshirilgandan so'ng, to'p darvozabon, darvoza ustuni yoki to'sinlariga tegib maydonga qaytib begona shaxsga tegsa:**

hakam o'yinni to'xtatishi kerak;

to'p maydonning begona shaxsga tekkan joyidan «baxsli to'p» orqali o'yin davom ettiriladi.

### **15-Qoida: to'pni yon chiziqdan o'yinga kiritish**

To'pni yon chiziqdan o'yinga kiritish o'yinni davom ettirish usullaridan biri hisoblanadi. Yon chiziqdan o'yinga kiritilgan to'p bevosita hech kimga tegmay darvoza chizig'ini kesib o'tsa, gol hisobga olinmaydi.

**To'pni yon chiziqdan o'yinga kiritish:**

to'p yon chiziqni yerda yoki xavoda to'liq kesib o'tgandan so'ng amalga oshiriladi; to'p aynan yon chiziqni kesib o'tgan joyidan o'yinga kiritish amalga oshiriladi;

yon chiziqni kesib o'tishdan oldin oxirgi marta to'pga tegingan jamoa o'yinchisining raqiblaridan biri tomonidan amalga oshiriladi.

### **To'pni yon chiziqdan o'yinga kiritish tartibi va yo'l-yo'riqlari**



O'yinchi to'pni yon chiziqdan maydonga tashab berayotgan paytda quyidagi talablarni bajarishi kerak: maydonga yuzi bilan turishi kerak; ikkala oyog'i tovonlarini shunday holatda joylashtirishi kerakki, ularning xech bulmasa bir qismi yon chiziqning ustida, yoki maydonning tashqarisida turishi lozim; to'pni ikkala qo'lli bilan o'yinga kiritishi kerak; to'pni boshidan oshirib sezilarli harakat bilan o'yinga kiritish kerak.

To'pni yon chiziqdan o'yinga kiritgan o'yinchi to'pga boshqa o'yinchi tegmasdan turib ikkinchi marta to'pga tegishga xaqqi yo'q.

To'p maydon ichiga kirishi bilan o'yin holatida deb hisoblanadi, ya'ni o'yin davom ettiriladi.

### **Qoida buzarliklar va jazolar**

Agar o'yinchi to'pni yon chiziqdan o'yinga kiritgandan so'ng, to'pga boshqa o'yinchi tegmasdan turib ikkinchi marta to'pga tegsa(faqat qo'li bilan emas):

o'yin Qoidasi buzilgan joydan raqib jamoa foydasiga erkin zarba belgilanishi kerak.

**Agar o'yinchi to'pni yon chiziqdan o'yinga kiritgandan so'ng, to'pga boshqa o'yinchi tegmasdan turib ikkinchi marta to'pni atayin qo'li bilan o'ynasa:**

o'yin Qoidasi buzilgan joydan raqib jamoa foydasiga jarima to'pi belgilanishi kerak agar o'yinchi o'z jarima maydonchasida to'pni qo'li bilan o'ynagan bo'lsa. 11-metrlik jarima to'pi belgilanishi kerak.

### **Darvozabon tomonidan to'pni yon chiziqdan tashlab berishda**

Agar darvozabon to'pni yon chiziqdan o'yinga kiritgandan so'ng, to'pga boshqa o'yinchi tegmasdan turib ikkinchi marta to'pga tegsa(faqat qo'li bilan emas):

o'yin Qoidasi buzilgan joydan raqib jamoa foydasiga erkin zarba belgilanishi kerak.

**Agar darvozabon to'pni yon chiziqdan o'yinga kiritgandan so'ng, to'pga boshqa o'yinchi tegmasdan turib ikkinchi marta to'pni atayin qo'li bilan o'ynasa:**

agar bu qoidabuzarlik o'z jarima maydonchasing tashqarisida yoki raqib jamoa jarima maydonchasida sodir etilgan bo'lsa, o'sha nuqtadan raqib jamoa foydasiga jarima to'pi belgilanadi; agar bu qoidabuzarlik o'z jarima maydonchasida sodir etilgan bo'lsa o'sha nuqtadan raqib jamoa foydasiga erkin zarba belgilanadi.

**Agar yon chiziqdan to'pni o'yinga kiritayotgan o'yinchiga raqib o'yinchisi noxaqlik bilan, qoidaga xilof ravishda to'pni o'yinga kritishda xalaqit qilsa:**

bu qoidabuzarlik sport qoidalariiga xilof ravishda harakat kilish deb topilib. Qoida buzgan o'yinchi sariq kartochka ko'rsatish bilan ogoxlantirilishi kerak.

**15 – Qoida shartlarining qolgan istalgan buzilish holatlarida:**  
yon chiziqdan to'pni o'yinga kiritish xuquqi raqib jamoaga beriladi .

**16-qoida: to'pni darvoza yonidan erkin zarba bilan  
o'yinga kiritish**

To'pni darvoza yonidan erkin zarba bilan o'yinga kiritish o'yinni davom ettirish usullaridan biri hisoblanadi.

Bevosita to'pni darvoza yonidan erkin zarba bilan o'yinga kiritish orqali darvozaga kiritilgan to'p hisobga olinadi, faqat to'p raqib jamoa darvozasiga kiritilsa (o'z darvozasiga urilgan to'p hisobga olinmaydi).

**Quyidagi holatlarda o'yin to'pni darvoza yonidan erkin zarba tepish bilan davom ettiriladi:**

to'p oxirgi marta hujum uyushtirayotgan jamoa o'yinchisiga tekkan holda, erda yoki xavoda chiziqni to'liq kesib o'tgan bo'lsa, bunda 10 – Qoida shartlariga muvofiq to'p darvozaga kiritilmagan bo'lishi kerak. Amalga oshirish tartibi zarba darvoza maydonchasing xoxlagan nuqtasiga o'rnatilib, himoyalananayotgan jamoaning istalgan o'yinchisi tomonidan amalga oshiriladi; raqib jamoaning barcha o'yinchilari jarima maydonchasining tashqarisida joylashtilari va to'p o'yinga kiritilmagunga qadar jarima maydonchasi ga kimasliklari kerak; zarbani amalga oshirgan o'yinchi to'pga boshqa o'yinchi teginmasdan turib ikkinchi marta to'pga tegishga haqqi yo'q; zarbadan so'ng to'p hech qaysi o'yinchiga tegmagan holda jarima maydonchasini tark etgan zaxoti to'p o'yinga kiritilgan deb hisoblanadi.

**Qoida buzarliklar/jazolar**

Zarbadan so'ng to'p xech kimga tegmagan holda jarima maydonchasini tark etmasa: zarba qaytadan amalga oshiriladi.

**Maydondagi o'yinchi tomonidan darvoza yonidan erkin zarba bilan to'pni o'yinga kiritishda**

**Agar o'yinchi darvoza yonidan to'pni erkin zarba bilan**

**o'yinga kiritgandan so'ng, to'pga boshqa o'yinchi tegmasdan turib ikkinchi marta to'pga tegsa(faqat qo'li bilan emas):**

Qoida buzilgan, ya'ni o'yinchi ikkinchi marta to'pga tegingen nuqtadan raqib jamoa foydasiga erkin zarba belgilanadi.

**Agar o'yinchi darvoza yonidan to'pni erkin zarba bilan o'yinga kiritgandan so'ng, to'pga boshqa o'yinchi tegmasdan turib ikkinchi marta to'pni atayin qo'li bilan o'ynasa:**

Qoida buzilgan, ya'ni o'yinchi ikkinchi marta to'pga tegingen nuqtadan raqib jamoa foydasiga jarima to'pi belgilanadi; agar o'yin Qoidasi o'z jarima maydonchasi ichida sodir etilgan bo'lsa, raqib jamoa foydasiga 11-metrlik jarima to'pi belgilanadi.

**Darvozabon tomonidan darvoza yonidan erkin zarba bilan to'pni o'yinga kiritishda Agar darvozabon darvoza yonidan to'pni erkin zarba bilan o'yinga kiritgandan so'ng, to'pga boshqa o'yinchi tegmasdan turib ikkinchi marta to'pga tegsa(faqat qo'li bilan emas):**

Qoida buzilgan, ya'ni darvozabon ikkinchi marta to'pga tegingen nuqtadan raqib jamoa foydasiga erkin zarba belgilanadi.

**Agar darvozabon darvoza yonidan to'pni erkin zarba bilan o'yinga kiritgandan so'ng, to'pga boshqa o'yinchi tegmasdan turib ikkinchi marta to'pni atayin qo'li bilan o'ynasa:**

agar o'yin Qoidasi o'z jarima maydonchasi tashkarisida sodir etilgan bo'lsa, o'sha nuqtadan raqib jamoa foydasiga jarima to'pi belgilanadi; agar o'yin Qoidasi o'z jarima maydonchasi ichida sodir etilgan bo'lsa, o'sha nuqtadan raqib jamoa foydasiga erkin zarba belgilanadi.

**16 – Qoida shartlarining qolgan istalgan buzilish holatlari:**  
**to'pni darvoza yonidan erkin zarba bilan o'yinga kiritish kaytadan amalga oshiriladi.**

### **17-qoida: burchak to'pi**

To'pni burchakdan o'yinga kiritish o'yinni davom ettirish usul-laridan biri hisoblanadi.Burchak to'pidan kiritlgan gol albatta hisobga olinadi, agar bu raqib darvozasiga kiritilsa.

**Burchak to'plari quyidagi hollarda belgilanadi:**

**To'p darvoza chizig'idan erda yoki havoda to'liq kesib o'tgan**

bo'lsa va bu to'pga so'nggi bo'lib himoyalananayotgan futbolchi tekkan bo'lsa. Bundan oldin 10-qoidaga ko'ra to'p darvozaga kirmagan bo'lsa.



35-rasim

#### **Burchak to'pini amalga oshirish tartibi:**

To'p burchak sektori ichiga bayroqli ustunning atrofida joylashtiriladi. Haimda darvoza chizig'iga yaqinroq nuqtaga qo'yiladi; Zarba berayotgan paytda bayroqli ustunga tegish ta'qiqlanadi; To'p o'yinga kiritulguncha, raqib jamoa futbolchisi to'pdan 9,15 metr dan yaqin bo'lmagan masofada turishi lozim; Burchak to'pi hujum qilayotgan jamoa a'zosi tomonidan oyoq bilan o'yinga kiritiladi;

To'p oyoq bilan joyidan siljishi bilan o'yinga kiritilgan deb hisoblanadi;

Burchak to'pini kiritayotgan o'yinchilari birinchi bor to'pga tegishgandan so'ng kema-ket ikkinchi bor tegina olmaydi, ya'ni to'pga ikkinchi marta uning jamoadoshi kelib teginadi.

#### **Qoidabuzarlik/jazolar**

Burchak to'pi maydonda harakat qilayotgan o'yinchilari tomonidan kiritiladi Agar burchak to'pini o'yinga kirituvchi futbolchi to'pga ikkinchi bor teginib(lekin qo'l bilan emas, unda boshqacha jazo qo'llanadi) ketsa, unda:

Qoida(to'pga ketma-ket ikkinchi bor teginish) buzilgan nuqtadan hakam tomonidan qarama-qarshi jamoa foydasiga erkin zarba belgilanadi;\*

Agar burchak to'pini o'yinga kirituvchi futbolchi to'pga ikkinchi bor atayin qo'li bilan o'ynasa, unda:

Hakam tomonidan qoida buzilgan nuqtadan qarama-qarshi jamoa

foydasiga jarima to'pi belgilanadi; Agar himoyachi o'z jarima maydoni ichida qo'l bilan o'ynasa, hakam tomonidan 11-metrlik jarima to'pi belgilanadi.

### Burchak to'pining darvozabon tomonidan kiritilishi

Agar burchak to'pini o'yinga kirituvchi darvozabon to'pga ikkinchi bor teginib(lekin qo'l bilan emas, unda boshqacha jazo qo'llanadi) ketsa, unda:

Hakam tomonidan qoida(to'pga ketma-ket ikkinchi bor teginish) buzilgan nuqtadan qarama-qarshi jamoa foydasiga erkin zarba belgilanadi;

Agar burchak to'pini o'yinga kirituvchi darvozabon to'pga ikkinchi bor qo'li bilan atayin teginib ketsa, unda:


Darvozaboning o'z jarima moydoni tashqarisida bo'lsa, hakam tomonidan qoida buzilgan nuqtadan qarama-qarshi jamoa foydasiga jarima to'pi belgilanadi; Darvozaboning o'z jarima moydoni ichida bo'lsa, hakam tomonidan qoida buzilgan nuqtadan qarama-qarshi jamoa foydasiga erkin zarba belgilanadi.

Burchak to'plarini kiritish vaqtida qolgan barcha 17 – qoida buzilish holatlarida:

Burchak to'pi qaytadan kiritiladi.

### 11-Metrlik nuqtadan zARBalar

O'yin durang natija bilan yakunlangan paytda, turnir reglamentiida ishtirokni davom ettirish uchun keyingi bosqichga jamoalardan biri chiqishi talab qilinsa, 11-metrlik nuqtadan beriladigan zARBalar g'olibni aniqlash uchun yagona yo'l hisoblanadi.



36-rasm

## Amalga oshirish jarayoni

Bosh hakam zARBalar yo'llanadigan davrozani aniqlaydi.

Bosh hakam qur'a tashlaydi va qaysi jamoa sardori qur'ada yutib chiqsa o'sha jamoa birinchi bo'lib zarbani ijro etish huquqini qo'lga kiritadi.

Bosh hakam ijro etilgan zARBalarni yozma ravishda qayd etib boradi.

Quyida keltirilgan shartlarga asosan jamoalar 5 marotabadan zarba ijro etadi.

Har bir jamoa o'yinchisi navbat bilan zarbani ijro etadi.

Agar penaltilar seriyasiga tugaguncha jamoalardan biri 5ta zarbadan kiritgan gollari soni, ikkinchi jamoa ham xuddi shuncha zarba ijro etib kiritgan gollari soniga amaliy jihatdan eta olmasa, unda 11-metrik nuqtadan beriladigan zARBalar to'xtatiladi.

Agar ikkala jamoa ham 5ta zarbadan urgancha gollari soni teng bo'lsa yoki umuman urilmagan bo'lsa, unda jamoalardan biri 1tadan zarba ijro etishda raqibidan bitta gol ko'p urguncha o'sha tartibda davom etaveradi.

Darvozabon, penaltilar seriyasi davomida darvozagaga tur olmaydigan darajada jaroxat olsa, unda musobaqa reglamentiga ko'ra maksimal darajada o'yinchilarni almashtrimagan bo'lsa, zaxirdagi futbolchi bilan almashtrishlishi mumkin. Ikkinchi bo'limning asosiy vaqt yoki qo'shimcha vaqt(agar qo'shimcha taym musobaqa reglamentida mavjud bo'lsa) tugagan mahalida maydonda harakat qilgan o'yinchilar 11-metrik nuqtadan zarba ijro etish huquqiga ega.

Futbolchilar bir marotabadan zarba berishadi, agar barcha o'yinchilar bir martadan zarba ijro etib bo'lishsagina, ularga yana tepish huquqi beriladi.

11-metrik nuqtadan beriladigan zARBalar vaqtida, har bir o'yinchikam ruxsati asosida o'z darvozabon bilan zarba berishda almasishi mumkin.


11-metrik nuqtadan beriladigan zARBadan oldin faqatgina zarba beruvchi futbolchi bilan hakamga jarima maydoni ichida turish huquqi beriladi.

Ikkala jamoa darvozaboni va zarba ijro etuvchi futbolchidan tashqari barcha o'yinchilar markaziy aylana ichida turishlari shart.

Zarba ijro etayotgan futbolchi jamoasi darvozaboni zarba ijro etilayotgan vaqtida jarima maydonidan tashqarida, ya'ni darvoza chizig'i bilan jarima maydoni chizig'i kesishgan nuqtada turishi lozim.

11-metrlik nuqtadan beriladigan zARBalar jarayonida O'yin qoidalariga va HK qaroriga amal qilishlari talab etiladi.

**Texnik maydoncha va to'rtinchи hakam  
texnik maydonchasi**



**36-rasm**

Rasmda ko'rib turganingizdek, maydonda bo'ladigan uchrashuvlarda zaxira futbolchilari uchun maxsus o'rindiq va jamoa rahbariyati uchun mo'ljallangan 3-qoida va 2-qarordagi kabi texnik maydoncha bo'ladi.

Texnik maydonchalar turli maydonlarda bir—biridan farq qilishi mumkin. Masalan, kattaligi va o'rnatilgan joyi bilan farq qiladi. Lekin bu maydonchalarni aniqlash uchun quyidagi bir xil pirnsiplarga asoslanadi:

Texnik maydoncha zaxira o'rindig'idan barcha tomonlarga 1 metr masofada chiziq tortilib chegaralanadi. Maydonning yon chizig'idan ham 1 metr masofada ajralib turadi.

Texnik maydonchaning chegarasini aniqlash uchun aniq belgilar-

dan foydalinish tavsiya etiladi.

Musobaqa reglamentiga ko'ra texnik maydoncha ichidagi shaxslar soni aniqlanadi.

Texnik maydonchada turishga musobaqa reglamentiga ko'ra aniqlanagan shaxslarga ruxsat beriladi. Ularning familiyalarini musobaqa bayonnomoasiga o'yin boshlanguncha kiritilishi shart.

Hamma vaqt faqat bitta shaxsga o'yinchilarga ko'rsatma berishga ruxsat beriladi va ko'rsatmalarni berib bo'lingandan keyin u darhol o'rindiqdagi o'zining joyiga qaytishi shart.

Murabbiy va rasmiy shaxslar texnik maydonchadan tashqariga chiqish huquqi berilmagan. Faqat shifokorlar bundan mustasno. Ular maydondagi bosh hakam ko'rsatmasiga asosan jarohat olgan futbolchiga tibbiy yordam ko'rsatish maqsadidagina texnik maydonchadan tashqariga chiqishi mumkin.

Texnik maydonchadagi murabbiy va rasmiy shaxslar o'zlarining javobgarlik doirasiga kiradigan darajada to'g'ri tutishlari lozim.

### To'rtinchchi hakam



37-rasm

Musobaqa reglamentiga ko'ra har bir o'yinga to'rtinchchi hakam tayinlanishi mumkin. Agar maydonda harakat qilayotgan 3 hakam dan birontasi o'zining vazifasini bajara olmaydigan darajadagi vaziyatga tushib qolsa, unda 4-hakam uning o'rniga almashtiriladi.

Agar hakam o‘z vazifasini bajara olmaydigan darajadagi vaziyatga tushib qolsa unda hakamlarni almashtirish tartibi musobaqa reglamenti asosida amalga oshiriladi.

Bosh hakam ko‘rsatmasiga binoan to‘rtinchi hakam o‘yingacha, o‘yin paytida va o‘yindan keyin bosh hakamga barcha tashkiliy ishlarda yordam berishi mumkin.

To‘rtinchi hakam o‘yin paytida futbolchilarning almashtirish jarayoniga bevosita yordam berishga majbur.

Agar o‘yin jarayonida o‘yindagi to‘pni almashtirish zaruriyati tug‘ilsa, unda to‘rtinchi hakam bu ishga ma’suldir. O‘yin vaqtini cho‘zmaslik uchun to‘rtinchi hakamda zaxira to‘pi bo‘lishi lozim.

To‘rtinchi hakam futbolchi zaxiradan maydonga tushishidan oldin o‘yinchini tekshirib ko‘rish huquqiga ega. Agar futbolchining kiyinishada xatolikni sezsa buni darhol bosh hakam yordamchisiga ma’lum qiladi. U esa o‘z o‘rnida bosh hakamga bu haqda ma’lumot beradi.

To‘rtinchi hakam barcha masalalarda bosh hakamga yordam beradi.

O‘yin tugashi bilan to‘rtinchi hakam o‘yin haqidagi bayonnomona musobaqa o‘tkazuvchi tashkilotga olib borib beradi. Agar o‘yin vaqtida bosh hakam va uning yordamchilari rasmiy shaxslarning o‘zlarini noto‘g‘ri tutishi va baxtsiz hodisalarini nazaridan chetda qoldirgan bo‘lsa, unda to‘rtinchi hakam hakamlar jamoasi bilan kelishilgan holda bu haqda bayonnomada aks ettirish lozim

## HAKAM ISHORALARI BOSH HAKAM ISHORALARI



Indirect free kick



Direct free kick



Advantage

### Erkin zarba

## BOSHI HAKAM YORDAMCHILARINING ISHORALARI



O'yinchি



Erkin zarba



o'yinga kiritish

### almashtirish



Offside on the near  
side of the field

O'yindan tashqari

holat, yaqin  
nuqtadan



Offside in the center  
of the field

O'yindan tashqari

holat, maydonning  
o'rtarog'idan



Offside on the  
far side of the field

O'yindan tashqari

holat, maydonning uzoq  
nuqtasidan

## **4.7. Yo‘qotilgan vaqt kompensatsiyasi**

### **O‘yin qoidalari va reglament**

To‘rtinchi hakam tomonidan o‘yindagi to‘xtalishlar hisobiga yo‘qotilgan vaqtini e’lon qilish

#### **7-Qoida: O‘yining davomiyligi. Vaqt qo‘shib berish.**

O‘yinning har bir bo‘limida quyidagi holatlar uchun vaqt yo‘qotilishi tufayli qo‘srimcha vaqt qo‘shib beriladi: o‘yinchilar almashtirish, o‘yinchilar jarohati darajasining jiddiyligini baholash, kuzatib qo‘yish (o‘yinchiga yordam ko‘rsatilishi uchun maydonдан tashqariga chiqarish), o‘yinni cho‘zish, boshqa biror sabab.

Vaqtni qo‘shish bosh hakam ko‘rsatmasiga binoan amalga os-hiriladi.

Musobaqalar reglamentida belgilanishicha, o‘yin vaqtida stadiionlardagi soatlar ishlashi mumkin, yagona shart shundan iboratki har bir bo‘lim, ya’ni 45 va 90 daqiqa tugagach, soatlar to‘xtatiladi. Ushbu shart final o‘yinlarining qo‘srimcha bo‘limlari uchun ham taalluqli. (YA’ni, soatlar 15 va 30 daqiqa o‘tgach, to‘xtatiladi).

#### **O‘yindagi to‘xtalishlar hisobiga yo‘qotilgan vaqtini e’lon qilish**

Agar o‘yin tugamagan bo‘lsa, bosh hakam o‘yindagi to‘xtalishlar uchun qo‘srimcha vaqt ajratsa, unga juda katta bosim o‘tkaziladi. O‘yinchilar, murabbiylar, jamoalar rahbarlari va axborot vositalari qancha vaqt qo‘shilganidan bexabar bo‘lishadi va bosh hakam tomonidan qo‘shib berilgan vaqtida gol urilsa, bu holat bosh hakamga e’tirozlarni kuchaytirib yuboradi.

Hakamlar Qo‘mitasi qiziqayotgan tomonlar o‘yindagi to‘xtalishlar uchun qancha vaqt qo‘shib berilayotgani to‘g‘risida ogohlantirilsa, bosh hakamga bosim keskin kamayadi degan to‘xtamga keldi.

Bosh hakam va to‘rtinchi hakam o‘yindagi to‘xtalishlar hisobiga vaqt yo‘qotilishiga ko‘proq e’tibor berishlariga to‘g‘ri keladi. Hakamlar Qo‘mitasi oddiy holatlarda o‘yinchilar almashtirishga 30 soniya, jarohatlangan o‘yinchini maydon tashqarisiga kuzatish uchun 1 daqiqa qo‘shib berishni tavsiya etadi. Alohibda hollarda bosh hakam yuqorida qayd etilgan holatdan farqli o‘laroq, vaqt yo‘qotilishini

aniqroq hisoblashi zarur bo'ladi. (Masalan, maydonda darvozabon-ga yordam ko'rsatilganda).

Italiyada keyingi yillarda to'plangan ijobiy tajribaga asoslanib, Hakamlar Qo'mitasi UEFA musobaqalarining barcha o'yinlarida e'lon qilishning quyidagi qoidalariga asosan, to'rtinchchi hakam tomonidan qo'shib berilayotgan vaqtini e'lon qilishni tavsiya etadi:

Har bir bo'limda asosiy o'yin vaqtini tugagandan so'ng (45-va 90-daqqalar o'tib bo'lgach) bosh hakam to'rtinchchi hakamga imo-ishora yoki ovoz chiqarib, qancha vaqt qo'shishga qaror qilganini bildiradi. O'yinga yarim daqiqa yoki soniyalar emas, to'liq daqqalar qo'shib beriladi. Ushbu qoida qo'shimcha bo'limlarda ham amal qiladi (15- va 30-daqqalar tugagandan so'ng).

To'rtchi hakam o'yinchilar, murabbiylar, tomoshabinlar va axborot vositalariga eng kamida qo'shib berilayotgan daqqalarni o'yinchi almashtirishda foydalilaniladigan raqamlangan (oddiy yoki elektron) tablichkalar yordamida ko'rsatadi.

Bir marta va tomshabinlar uchun ushbu axborot stadionning retranslyasion tizimi yordamida e'lon qilinishi mumkin, shuningdek, qisqa vaqt mohaynida stadiondagagi gigant monitorda ham ko'rsatilishiha ruxsat beriladi.

O'yinning asosiy vaqtini tugagach, ya'ni 45- va 90-daqqalar o'tib bo'lgach, stadiondagagi soat to'xtatiladi, agar qo'shimcha bo'limlar o'tkazilsa, 15- va 30-daqqalardan so'ng soat yana to'xtatilishi kerak.

O'yinga qo'shib berilgan daqqalarda biror holat yuz bersa va bu holat o'z-o'zidan yana vaqt qo'shishni talab qilsa, na bosh hakam, na to'rtinchchi hakam yana qancha vaqt qo'shilishini ko'rsatmaydi. O'yin qoidalariga muvofiq, qo'shib berilgan vaqtida o'yin to'xtalishlari uchun, shubhasiz, yana bir qancha vaqt qo'shib beriladi.

1930 yildan boshlab futbol bo'yicha eng nufuzli musoboqa hisoblanmish jahon championati har to'rt yilda bir marta o'tkazilib kelinmoqda.

OFK (Osiyo futbol konfederatsiyasi) kubogi 1956 yildan beri o'tkazilib kelinmoqda. OFK ga bugungi kunda 44 ta mamlakat a'zo-dir. Bu musoboqlarda Koreya uch marta, Eron uch marta, Saudiya Arabistoni uch marta, Yaponiya ikki marta, Isroil va Quvayt bir mar tadang'olib bo'lishgan. O'zbekiston respublikasi ham 1992 yildan

buyon OFK ga a'zo bo'lib, konfederatsiya tomonidan o'tkaziladigan barcha musoboqlarda muvoffoqiyatli ishtirok etib kelmoqda.

OKF o'zining terma jamoalar o'rtasida Osiyo championatini o'tkazish bilan bir qatorda Osiyo championatlari kubogi hamda Osiyo kubok egalari kubogini ham o'tkazib keladi. Bu musoboqlarda mamlakatimizning nufuzli jamoalaridan "Paxtakor", "Neftchi", "Nabohor", "Do'stlik", "Bunyodkor" va "Nasaf" jamoasi muvoffoqiyatini alohida ta'kidlab o'tish jozdir.

#### **4.8. O'zbekistonda futbol sport turini rivojlanishi**

Mamlakatimizda futbol o'tgan asrning 70 yillarida paydo bo'ldi.

O'lkamizning shahar va qishloqlarida XX asr boshlarida avval "Shayton o'yini", keyinchalik "Yovvoyi o'yin" deb nom olgan o'yinlar paydo bo'ldi. Mahalliy futbol ishqibozlari futbol o'yinini o'ynash uchun maydon qidirishar edi. Lekin eng asosiysi eng katta muammo to'p bo'lgan, chunki to'plar do'konlarda sotilmas edi. Lekin bu muammoni ham yo'llini topishdi. Charm to'p ichiga latta-putta tifib o'ynashardi. Lekin to'p yengil bo'lib unchalik o'ynab bo'lmasdi. U tezda yirtilib ketardi, ikkinchidan sakramas edi.

Keyinchalik ishqibozlar pul yig'ib xarbiylardan haqiqiy to'p sotib olishdi.

Shu tariqa Qo'qon shahrida 1912 yilda mahalliy yigitlardan tashkil topgan dastlabki jamoalar vujudga keldi va davrning o'ziga xos bu yangiliqi tez kunlarda Farg'ona vodiysi, shahar va qishloqlariga, keyinchalik esa butun Turkiston o'lkasiga tarqaldi.

Shu tariqa Xusanxon, Kamalxon va Abduqodir Muxitdinov, Oxunjo, Akobirjon va Mo'minjon Boymatovlar, Po'latxoji Xaydarov, Abdulla Qushchi Soliev, Valixon O'sarov, Xoshimjon Aminov, Mirjalol Abdullaev, Ro'zimat va Ismoil Niyozovlar, Melivoy Azizov, Karim SHoniyo佐 va boshqa o'nlab kishi o'zbek futboliga birinchi tamal toshini qo'ygan insonlar sifatida tarix zarvaraqlaridan joy oldilar.

O'zbekistonda zamonaviy futbol o'tgan asming boshla-rida paydo bo'ldi va tezda mashhur o'yinga aylandi. Uning rivojlanish joylari Farg'ona, Toshkent, Andijon, Qo'qon va Samarqand edi.

## «MUSKOMANDA»

Biz yuqorida tabarruk nomlarini sanab o'tgan futbolimiz qadirgochlari saflari kengaya bordi, jamoalarda yangi nomlar paydo bo'la boshladi. Yulduzxon Faezov va Jura Saidov (qo'qon), Kurbon Badaliy (Buxoro), Musa Xujaev (Fargona), Yokub Valishoev, Usmon Umarov, Teshavoy Karimjonov (Toshkent) va boshka fidoiy futbolchilarning nomlari el og'ziga tushdi. Kun sayin kupayib borayotgan charm tup muxlis-lari barcha futbolchilarga xavas qilishar, qadrlashar va xurmatlashardi, yoshlari esa ularning izlaridan borishardi.

Shu tariqa respublikamiz hududida maxalliy millat vakillaridan tashkil topgan «Muskomanda» («Musulmonlar komandasasi») uchun asos solindi. U terma jamoa tarzida yuzaga kelib, ko'plab shaharlar vakillarini o'z ichiga olardi. «Muskomanda» tarkibidan joy olish uchun kurash o'sha davrlarda barcha yoshdagi futbolchilar orasida uziga xos ko'rik tanloviga aylanib ketdi. Jamoa esa tobora shakllanib, o'z tarkibini besh va iqtidorli futbolchilar bilan to'ldirib borardi. Biron bir shaharga «Muskomanda» a'zolari tashrif buyuradigan bo'lsa, u shahar o'sha kunlarda futbol maskaniga aylanib ketib, yetti yoshdan yetmish yoshgacha bulgan ishqibozlar o'yingoh tomonga oshiqishardi. Xaqqatan xam «Muskomanda»ning obrusi kun say-in oshib borardi, u uzining jozibali uyinlari bilan kupchilik keksayu-yoshlarni sexrlab qo'ygandi.

Jamoa a'zolaridan Oxunjon Boymatov hamda Ruzimat Niezovlarning biroz bulsa xam kosibchilikdan xabarları bor edi. Ular asta-sekin tup tikish sirla-rini xam urgana boshladilar. Yuqorida aytib o'tilganidek, o'sha yillari to'plarga talab nixoyatda kuchli bulgan. Oxunjon va Ruzimatlar atroflariga Shu soxaga moyil bulgan eshlarni olib, tup tikish ishiga astoy-dil kirishiib ketdilar. Bejirim to'plar barcha futbolevarlarga yoqib qoldi, xatto Moskvadan xam 400 dona to'pga buyurtma olindi.

Shaxarlarda yangi tuzilgan jamoalar urtasida qiziqarli uchrashuvlar o'tkazish yo'lga ko'yildi. 1912 yilda Skobelev (xozirgi Farangona) va Andijon jamoalari o'zaro kuch sinashishdi. Farg'onadagi dastlabki uchrashuvda maydon egalari 3:1 hisobida g'olib chiqishgan bo'lsa, Andijonda xam maydon egalari omadli bo'lishdi — 3:2.

O'sha yillari shuningdek, Toshkent, Samarkand, QO'QON, Naman-gan jamoalari ham turli xil uchrashuvlarda qatnashganlar.

1915 yilda birinchi marta Turkiston birinchiligi tashkil etilib, unda «Skobelev futbolchilar tugaragi» jamoasi birinchi o'ringa sazovor bo'ldi. Jamoa tarkibini aka-uka Martinyuklar, Grenkel, Sukanov, Xolopov, Kulakov, Mishkevich, Lapshionov, Maslov, Ovcharov va boshqalar tashkil etishardi. 1995 yilda o'sha birinchi championatning 80 yilligiga bag'ishlab Far-gonada utkazilgan yubiley tadbirida futbolimiz fax-riyalaridan Musa Xujaev va Jura Xonazarovlar xam ishtirok

#### 4.9. Zamonaviy futbol tavsifi

Mutaxassislarimiz tadqiqotlari bizga o'yinchilarning to'p bilan va to'psiz harakatlarining hajmi va xususiyati haqida ma'lumot olishga imkon berdi.

Aniqlandiki:— o'yinning sof vaqt 60-65 daqiqani tashkil etadi.

— 90 daqiqa o'yin davomida bir o'yinchisi 12-15 km masofani chopib o'tadi. Bundan 1000-2000 m masofani maydonda tezkorlik bilan harakatlanadi.

— to'p o'rta qator o'yinchilari eng ko'p (170 soniya), markaziy himoyachilar eng kam (130 soniya) olib yuradilar.

— yaxshi o'ynaydigan jamoalar match davomida o'rtacha 900 tagacha texnik usullarni bajaradilar. Shulardan taxminan 60% i hujum harakatlariga yo'naltirilgan bo'ladi.

— hozirgi zamon futbolida himoyachilar o'z zonalarida 850 soniya gacha va maydonning o'rta qismida 350 soniya gacha miqdorda o'zlarinin asosiy vazifalarini bajaradilar.

— darvozaga urilgan zARBALARNING KO'PCHILIGI YON TOMONDAN OS-HIRIB BERILADI (hamma zARBALARNING 65% I).

Zamonaviy futbol o'zining yuqori darajadagi faol harakatchiligi xamda texnik-taktik harakatlarning xilma-xilligi bilan ajralib turadi.

Zamonaviy futbol o'yin taktikasi quyidagilar bilan ifodalanadi:

— maydonning har bir qismida hujumning tez tashkil qilish bilan. Himoyachilar, o'rta qator o'yinchilari, kerak bo'lgan taqdirda hujum qatori o'yinchilari bilan himoya chizig'ini mustahkamlash;

- match yaxshi yakunlashida iqtidorli o'yinchilarning rolini oshirish;
- yuqori tempdag'i o'yinni pauzalar bilan birga olib borish;
- o'yinning har bir holatida (o'yinning boshida, uning daovida va hujumni yakunlashda) markaziy himoyachilarining rolini oshirish;
- qanotdan hujum uyushtirishda qanot yarim himoya-chilari va himoyachilarining rolini oshirish;
- standart holatlardan (jarima to'plari, burchakdan to'pni o'yinga kiritish va boshqa standart holatlar) unumli foydalanish.

Zamonaviy futbol o'yin texnikasi quyidagilar bilan ifodalanadi:

- harakat holatida, yugurib ketayotib to'pni o'ziga bo'ysundira olish;
- har xil vaziyatlarda to'pni imkon qadar aniq uzatib berish. Jismoniy tayyorgarlikda:
- maydonning har bir qarich erida yuqori darajadagi texnika bilan harakatlanish va to'pga egalik qilish, aldamchi harakatlarni qo'llay bilish;
- o'yinchilarning o'yin davomida umumi yugurish harakatlari quyidagicha taqsimlanadi: 45 martadan 78 gacha (umumi masofa 1000-2000 metrga etadi), to'p uchun kurashda sakrash harakatlari, kurashlar – 11 tadan 42 gacha, har xil masofaga tezlik bilan yugurish – 40 tadan 60 tagacha (umumi vaqt 2-5 daqiqagacha), sekin yngurish 224 tadan 367 gacha (umumi vaqt 25-35 daqiqa);
- tezlik-kuch sifatlari va tezlikka chidamlilikning yuqori darajasi;
- raqib bilan kurashda muhim bo'lgan shiddat va qat'iylikning yuqori darajasi;
- jamoa o'yin potensialining muntazam oshib borishining ta'minlanishi;

Keyingi paytda sezilarli darajada futbolchilarining o'yinlardagi harakatlanish tezligi oshdi, o'yin faoliyatining jadalligi (samaradorlik) oshdi va bular sportchilar organizmiga bo'lgan yuklamani ancha oshirdi.

Har bir o'yin davomida turli quvvatdagi ish yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli mashqlar futbolchilarда aerob va anaerob sifatlarning unumdoorligini yuqori darajaga ko'tarishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

O'yin davomida futbolchilar kattagina energiyani (ya'ni bir

daqiqada yurak qisqarish chastotasining 180-190 bo'lishi, tana og'irligini 2-3 kg kamayishi va quvvatini 1500 kkal ga) sarf qilishida, futbolchilarning organizmidagi yuqori darajada tayyorgarlikka ega bo'lishini ta'kidlash o'rinnlidir.

Futbolchilarни sog'ligini mustahkamlashda ularning gigienik tablarga rioya qilishlari va ko'proq toza havoda mashq qilishlari katta ahamiyatga egadir. Futbolchilarning bunday amallarga rioya qilishlari organizmda moddalar almashinuvi yaxshilanishi, tayanch harakat apparatini, muskul, asab tizimlarining mustahkam va sog'gom bo'lishini ta'minlaydi.

### **Nazorat savollar**

1. Xalqaro futbol federatsiyalari uyushmasi FIFA qachon tashkil topgan?
2. FIFA tarkibiga qaysi qit'a tashkilotlari kiradiyu?
3. Zamonaliv futbol o'yin taktikasi nima bilan tavsiflanadi?
4. Futbol o'yin qoidalari nechta punkdan va uni tariflab bering?
5. O'zbekiston futbol qachon tashkil topgan?
6. O'zbekiston futbol uyushmamiza qachon FIFAGa a'zo bo'lgan?
7. O'zbek futboldagi "Muskomanda" jamoasi haqida bilasizmi?
8. Futbol o'yin texnikasi tasnifi nima.
9. Texnik tayyorgarlikni rivojlantirish uslub va vositalari
10. Taktik tayyorgarlik maqsadi va asosiy vazifalari
11. Futbolchilar taktik malakalarining axamiyati.
12. Xarakatlanish texnikasi turlariga izox bering?
13. Darvozabon texnikasiga tasnif?
14. Darvozabon to'pni tashlab berish texnikasiga izox bering?

## **ASOSIY ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Futbol nazariyasi va uslubiyati. Darslik. R.I. Nurimovning umumiy tahriri ostida «ITA-PRESS». Toshkent.2015. 364 bet
2. Nurimov R.I.,Abidov Sh.U.,Nurimov Z.R., Davletmuratov S.R. Sport va milliy o'yinlar (Futbol) Darslik. «ITA-PRESS». Toshkent.2015. 180 bet
3. Carlos Garcia Cantanero. Escuela de futbol. Jriginal Spanish-language edition published. Spain, 2015
4. Abidov Sh.U. Yosh futbolchilarning o'quv mashg'ulot jarayonini tashkil qilish va rejalashtirish. Uslubiy tavsiyanoma. T., O'zD-JTI. 2011 y. 38 b.
5. Artikov A.A. Shukurova Sh.T. Mag'lubiyattdan keyin o'yindan chiqib ketish bilan o'ynaladigan musobaqa tizimi. Uslubiy tavsiyanoma Toshkent. 2014y.46 bet.
6. Artikov A.A. Shukurova Sh.T. Musobaqalarni davrli tizimda o'tkazish tartibi. O'quv uslubiy qo'llanma Toshkent. 2015 y. 50 b.
7. Mirzaqulov A.G., To'laganov A.A., Po'latov S.N. Futbol o'yin qoidalari va musobaqalarni tashkil etish O'quv uslubiy qo'llanma Toshkent. 2014 y. 52 b
8. Talipdjanov A.I. Sovremennaya sistema podgotovki visoko kvalifitsirovannix futbolistov. Uchebnoe posobie. Tashkent, UzIFK. 2011.159 s.

### **INTERNET SAYTLARI**

- www.flfa.com - Xalqaro Futbol Uyushmasi sayti
- w www.UEFA.com - Yevropa Futbol Uyushmasi sayti
- www.football.wikipedia.org-Jahon futbol yangiliklari sayti
- www.Football.com - Futbol axboroti sayti
- www.uff.uz-O'zbekiston Futbol Federatsiyasi sayti
- www.uz-football.com-O'zbekiston futbol yangiliklari sayti

## MUNDARIJA

Kirish.....	3
<b>I-BOB. FUTBOL SPORT TURINI PAYDO BO'LISHI, RIVOJLANISH TARIXI VA O'YIN QOIDALARI.....</b>	<b>6</b>
1.1. Futbol sport turi paydo bo'lishi, rivojlanish tarixi .....	6
1.2. Futbol sport turidagi birinchi joriy qilingan o'yin qoidalari....	9
1.3. To'pni bir oyoqning ichki qismi bilan uzatishni o'rgatish.....	12
1.4. To'pni oyoqning o'rta va tashqi qismi bilan uzatishni o'rgatish .....	15
<b>II-BOB. NOGIROLNAR O'RTASIDAGI ASOSIY FUTBOL MUSOBAQALARI .....</b>	<b>20</b>
1.1. O'zbek sportchilarining musobaqlardagi ishtiroki .....	20
2.2. Futbol 7 x 7 o'yin qoidalari va rivojlanish tarixi .....	22
2.3. 7 x 7 Futbolda Xakamlik qilish. Xakamning huquq va majburiyatları.....	30
2.4. Bosh hakamning ishoralari .....	33
2.5. Yordamchi hakam huquq va majburiyatları.....	35
<b>III-BOB. 7X7 FUTBOL O'YININI O'TKAZISHNING QONUN QOIDALARI.....</b>	<b>37</b>
3.1.O'yin davomiyligi.....	37
3.2. 7x7 futbolda qoida buzilishi va o'yinchilarga jarima belgilash holatlari .....	39
3.3. Tanlov formati va ballarni hisoblash .....	46
<b>IV-BOB. 7x7 FUTBOL SPORT TURI QOIDALARIGA QO'SHIMCHA.....</b>	<b>50</b>
4.1. 7x7 futbol sport turida imkoniyati cheklangan shaxslarning ishtiroki .....	50
4.2. Imkoniyati cheklangan sportchilarni nazalogiya tasniʃi bo'yicha noroziliklar kelib chiqish sabablari.....	56
4.3. Dori vositalarini qo'llash .....	64
4.4. Futbol 5x5 sport turiga tavsif va o'yin qoidalari.....	65
4.5. Amputantlar futbolining paydo bo'lish va rivojlanishi.....	69
4.6. Futbol o'yin qoidalari .....	74
4.7. Yo'qotilgan vaqt kompensatsiyasi .....	111
4.8. O'zbekistonda futbol sport turini rivojlanishi .....	113
4.9. Zamonaviy futbol tavsifi .....	115
Asosiy adabiyotlar ro'yxati:.....	118

G'ofurov Sh.X – O'zDJTSU, Adaptiv jismoniy tarbiya va sport kafedrasi o'qituvchisi.

## ADAPTIV SPORT O'YINLARI O'RGAТИSH METODIKASI (FUTBOL)

*O'quv qo'llanma*

*Muharrir: S. Abdunabiyeva  
Badiiy muharrir: K. Boyho'jayev  
Sahifalovchi: A. Muhammadiyev*

Nashr. lits № 0038.  
Bosishga ruxsat etildi 12.11.2021 y.  
Bichimi 60x84 1/16. Offset qog'oz. "Times New Roman"  
garniturası. Hisob-nashr tabog'i. 15.0.  
Adadi 100 dona. Buyurtma № 77.

«DAVR MATBUOT SAVDO» bosmaxonasida chop etildi.  
100198, Toshkent, Qo'yliq 4 mavze, 46.



F6 (Q03)

ISBN 978-9943-7615-5-1



9 789943 761551